

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

MAXSUDOV ALIXONTURA OLIMOVICH

**“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETI
DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA TO‘G‘RI
SOLIQLARNING O‘RNI”**

5230600 – “Moliya” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

Fakultet dekani

_____ dots. D.R.Rustamov

“ ____ ” _____ 2018 y.

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

“Moliya” kafedrasi mudiri

_____ prof. T.S. Malikov

“ ____ ” _____ 2018 y.

Bitiruvchi: 5230600 – “Moliya” ta’lim
yo‘nalishi 4-kurs talabasi

A.O.Maxsudov _____

Ilmiy rahbar: _____ prof.Shamshidinov F.

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1- BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI.....	7
1.1. Davlat byudjetini daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ob'ektiv zarurligi, nazariy masalalari	7
1.2. Davlat byudjetining daromadlarini soliqlar orqali shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari.....	12
1-bob bo'yicha xulosa	16
2- BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQ TURLARIDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	17
2.1. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti solikli daromadlarining amaldagi holati tahlili	17
2.2. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda to'g'ri soliqlarning hozirgi amaliyoti tahlili.....	25
2-bob bo'yicha xulosa	31
3-BOB. O'ZBEKISTON REESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA TO'G'RI SOLIQLAR TUSHUMI BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....	33
3.1. Davlat budjetiga soliqlarning kelib tushishini ta'minlash masalalari.....	33
3.2. Soliqlar tushumi barqarorligini ta'minlashda xorij tajribasidan foydalanish amoliyoti	37
3-bob bo'yicha xulosa	43
XULOSA	45
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	47

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi Iqtisodiy islohotlarning samarali tashkil etilishi va olib borilishida aksariyat hollarda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning tarkibiy qismi hisoblangan davlat byudjeti hamda uning daromad qismi o'z vaqtida va to'liqligicha shakllanishi eng asosiysi byudjet yil davomida kamomadsiz ijro etilishi muhim hisoblanadi. Shunday ekan, byudjet daromadini yil davomida shakllantirish jarayonida ilmiy asoslangan tartib-qoidalarga to'liq rioya qilgan holda ishlarni tashkil etish lozim. Aks holda, davlat byudjetida kamomad qaror topadi. Byudjet muassasalarini o'z vaqtida moliyalashtirish imkoniyati cheklanadi.

Byudjet daromadlarini shakllantirish shartli holatda ikki guruhga bo'linadi. Xususan: solikli daromadlar va soliqsiz daromadlar. O'z navbatida, solikli daromadlar bir necha guruhlariga bo'linib, ular quyidagilardan iborat: to'g'ri soliqlar, egri soliqlar va mulk soliqlaridan iborat. Soliqsiz daromadlar solikli xarakterga ega bo'lmasdan, shuningdek, amaldagi qonunlarga zid bo'lmagan barcha moliyaviy manbalardan tarkib topadi. Ushbu ikki manbaning byudjet daromadlaridagi ulushiga nazar soladigan bo'lsak, bu ko'rsatkich turli davlatlarda turlicha bo'ladi.

Amaliyotda esa, rivojlangan davlatlarda solikli daromadlarning davlat byudjetidagi ulushi 80-82 foizni tashkil etadi. Soliqsiz daromadlar esa mos ravishda 18-20 foizni tashkil etadi. Milliy iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda esa manzara qisman o'zgacha bo'lib, solikli daromadlar 90-95 foiz, mos ravishda soliqsiz daromadlar 5-10 foizni tashkil etadi. O'zbekiston respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmoniga asosan, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan 1 makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy

¹ "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etishga alohida e'tibor qaratildi. Soliq tizimida olib borilayotgan islohotlar makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga va mamlakat aholisining turmush darajasiga ijobiy ta'sir etishi lozim. Shu o'rinda birinchi Prezident I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlagan edi: avvalo mamlakatni modernizatsiya qilish va demokratik yangilash, jamiyatni erkinlashtirish, aholining turmush darajasini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamni islohatlarni yanada chuqurlashtirish zaruratlaridan kelib chiqqan holda ish olib borilishi ta'kidlandi va birinchi ustuvor yo'nalish sifatida "Iqtisodiyotning barqaror va mutanosib sur'atlarda o'sishi hamda tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiyalashni ta'minlash uning eng muhim tarmoqlarini texnik va texnologik yangilash soliq siyosatini yanada takomillashtirishdan iborat"² deb e'tirof etildi. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda avvalambor soliq tizimini yanada takomillashtirish, soliqlarning turlari va ularning amalga oshirish mexanizmini soddalashtirish muhim masalalardan hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarining samaradorligini oshirish, shu jumladan, soliq tizimini

² Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. "Xalq so'zi" gazetasi, 13-fevral 2007-yil. 2-5 betlar.

yanada erkinlashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunga kelib, yurtimizda soliqlar va soliqqa tortish jarayonlari mukammal tarzda tashkil etilgan va boshqarilmoqda. Soliq tizimida izlanishlar amalga oshirilib, yildan-yilga optimallashtirib borilmoqda. Lekin shunga qaramasdan soliq sohasida, soliqqa tortish jarayonida muammolar yo'q emas. Afsuski ijobiy ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud. Bularga misol tariqasida soliqli daromadlar ichida egri soliqlarning ulushini ko'p ekanligini keltirishimiz mumkin. Egri soliqlardan keladigan resursni ko'payib ketishi korxonalariga o'z imkoniyatlarini to'liq namoyish etish imkonini bermaydi. Mol-mulk solig'ida ham uni qayta baholash va amortizitsiya hisoblash borasida bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Demak, yuzaga kelgan shu va boshqa muammolar, ularni yechimiga doir zaruriy xulosa va takliflar berish, soliqqa tortish jarayonini tashkil etish va uni boshqarishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olish, bunda soliq tizimida so'nggi yillarda kuzatilgan natijalar tahliliga tayanish, shu bilan birga xorij tajribasini o'rganib, mamlakatimizda soliqlar va soliqqa tortish jarayonini yanada rivojlantirish borasida takliflar berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari ushbu maqsadga erishish uchun soliq tizimini isloh qilishning zamonaviy yo'nalishlari bitiruv malakaviy ishining oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

-Soliq tizimida soliqlar va soliqqa tortish tenglashtirilgan to'lovlarning iqtisodiy ahamiyati va ro'li hamda soliqlarning guruhlanishi, huquqiy asoslari to'g'risida aniq fikrlarga ega bo'lish;

-Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlar tushunchasi, ularning iqtisodiy mohiyati va ob'ektiv zarurligiga baho berish;

-soliq tizimining mohiyati va uni guruhlash tartibini yoritish;

-O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida to'g'ri soliqlar turlarini tahlil etish; -O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida egri soliqlar turlarini tahlil etish;

-O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlar hamda yig'implar tarkibini o'rganish;

-yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'implarning amal qilish mexanizmini tahlil qilish;

-iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq tizimini takomillashtirishni ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;

-O'zbekistonda to'g'ri va egri soliqlar nisbatini optimallashtirish masalalarini yoritish va boshqalar.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti Davlat byudjetining daromadlarini rejalashtirish va optimallashtirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar maydonga chiqadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari tarkibi belgilab olindi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari, davlat budjeti daromadlaridan maqsadli foydalanish, hamda daromadlardan foydalanishga qaratilgan amaliy tavsiyalardan maqsadli davlat dasturlari ishlab chiqilishida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishda oldinga surilgan ilmiy-amaliy tUSDagi qoida, g'oya, fikr-mulohaza, xulosa va takliflardan, yangi tahrirdagi davlat byudjetini moliyalashtirish strategiyasini belgilash; byudjet siyosatini isloh qilish va takomillashtirish va mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan keyingi ilmiy – tadqiqot ishlarini amalga oshirish, xususan, “Moliya” kursi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda foydalanilish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining tarkibi tuzilmaviy rejasiga ko'ra, ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish qismidan, uch bobdan, hulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

1-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Davlat byudjetini daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ob'ektiv zarurligi, nazariy masalalari

Dunyoda hali hech bir davlat yo'qqi soliqlarsiz iqtisodiyotini tashkil qilgan bo'lsin. Tarixan olib qaraydigan bo'lsak, soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida sinfiy hukmron kuch sifatida yuzaga chiquvchi davlatning paydo bo'lishi va uni faoliyatining davomiyligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu o'rinda soliq kategoriyasi davlatni iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqiylik sifatida yuzaga chiqishini ta'kidlash lozim. Soliq tushunchasi bu tor ma'noda davlat ixtiyoriga boshqalardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi. Shundan keyin malakatimizda uzoq yillarga mo'ljallangan soliq siyosati ishlab chiqildi va hozirgi kunga kelib ancha samarali soliq siyosati yuritilmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'zining bozor munosabatlariga asoslangan rivojlanish yo'lini belgilab oldi. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishning tadrijiy yo'li tanlandi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: “Yangi tartib bo'yicha, agar shaxs soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bosh tortish bilan bog'liq jinoyatni birinchi marta sodir etgan bo'lsa va huquqbuzarlik aniqlanganidan so'ng 30 kun³ ichida davlatga etkazilgan zararni to'liq qoplasa, unga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilmaydi va u javobgarlikka tortilmaydi”. Davlatimiz rahbari boshchiligida butun dunyoda tan olingan iqtisodiy taraqqiyotning “O'zbek modeli” ishlab chiqildi va hayotga joriy etildi. Asta-sekinlik bilan bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan munosabatlar

³ Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir”. 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 16.01.2016 y. www.uza.uz

rivojlana boshladi. Bu esa barcha tarmoqlarda bo'lgani kabi iqtisodiyot tarmoqlarida, shu jumladan soliq sohasida keskin o'zgarishlar bo'lishini taqozo etdi. Barchamizga ma'lumki, soliq tizimi va soliq siyosatining asosini soliqlar tashkil etadi. Soliqlarsiz mamlakatda soliq siyosatini yuritishning imkoni yo'q. Soliq siyosati bo'lmasa iqtisodiy siyosatni davlat miqyosida tasavvur qilish qiyin.

Buni birinchi Prezident I.A.Karimovning quyidagi so'zlaridan ko'rishimiz mumkin: "2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi"⁴. Darhaqiqat, bunday ijobiy o'zgarishlar zamirida mamlakat soliq siyosatining va soliqqa tortish jarayonlarining samarali hamda keng miqyosda olib borilayotganligi yotibdi.

Yurtimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari iqtisodiy erkinlashtirish, davlat boshqaruvchilik funksiyasini qisqartirish va uning iqtisodiyotga aralashuvini cheklashdan iborat. Shu bilan birgalikda milliy ishlab chiqarishni shakllantirish va rivojlantirish, budget-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlash, budget kamomadiga yo'l qo'ymaslik muhim ustuvor vazifalar qatoriga kiradi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, soliqlar orqali iqtisodiyotni boshqarish mexanizmini to'g'ri, oqilona ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish lozim bo'ladi. Bu haqda fikr yuritir ekan birinchi Prezident I.A. Karimov shunday ta'kidlaydi: "Soliq siyosatini takomillashtirish iqtisodi-yotni barqarorlashtirishga va moliyaviy ahvolni mustahkamlashga oid muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi"⁵.

Bugungi kunga kelib yurtimizda soliqlar va soliqqa tortish jarayonlari mukammal tarzda tashkil etilgan va boshqarilmoqda. Soliq tizimida izlanishlar amalga oshirilib, yildan-yilga optimallashtirib borilmoqda. Lekin shunga

⁴Karimov I.A.. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – Toshkent, 2014. – 64 b.

⁵ Karimov I. A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari". T.: O'zbekiston, 1998. 358-b.

qaramasdan soliq sohasida, soliqqa tortish jarayonida muammolar yo'q emas. Afsuski ijobiy ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud. Bularga misol tariqasida solikli daromadlar ichida egri soliqlarning ulushini ko'p ekanligini keltirishimiz mumkin. Egri soliqlardan keladigan resursni ko'payib ketishi korxonalariga o'z imkoniyatlarini to'liq namoyish etish imkonini bermaydi. Mol-mulk solig'ida ham uni qayta baholash va amortizitsiya hisob-lash borasida bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda.

Soliqlar har bir davlat mavjud bo'lishining asosiy sharti hisoblanadi. Jumladan, bizning mamlakatimizda ham soliqlar katta ahamiyat kasb etadi. Soliqlar orqali davlat budjetining asosiy daromad qismi shakllantiriladi. Soliq tizimi bozor munosabatlarining eng muhim elementlaridan bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan unga bog'liq.

Birinchi Prezident I.A Karimov tomonidan, "avvalo soliq tizimini o'ziga xos vazifani-fiskal, qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarishi kerak"⁶ shuning uchun ham hozirgi vaqtda yaratilgan soliq tizimini tubdan qayta o'zgartirish to'g'risidagi takliflarga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim.

Soliqlarning amal qilishi bu obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha sub'ektlar ham real sektorda, ya'ni ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni obyektib amal qilishini talab etadi. Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mag'lablarni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar amal qiladi. Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pullik munosabatlarni bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi.

⁶ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. 358-b.

Davlat uchun budjet daromadlarining asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir.

Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish davlat budjeti daromadlarini shakllantirish soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usul hisoblanadi.

Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar. Bunda soliqlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bevosita oborotidan undiriladi, ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari, yig'implari va boshqalar kiradi.

2. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar. Bunday soliqlar soliq to'lovchi sub'ektlar tasarrufida mavjud bo'lgan mol-mulkdan, erdan va boshqalarga nisbatan belgilanadigan soliqlardan iborat.

3. Daromaddan olinadigan soliqlar. Bunga yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslarning daromad solig'i va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda amal qilayotgan soliqlarning ayrimlari koxonalar ho'jalik faoliyatining oxirgi moliyaviy natijasidan byudjetga to'lanadigan aksariyat soliqlar va majburiy to'lovlar kelgusi davr xarajatlari orqali ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shiladi (er solig'i, mol-mulk solig'i, ekologiya solig'i va boshqalar). Shu o'rinda soliqlarni guruhlashning asosi hisoblangan, ularni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga qarab quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

1. Tovar (ish, xizmat) lar oborotidan to'lanadigan soliqlar. Bunday soliqlarga asosan egri soliqlar kiradi, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i,

jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan soliqlar: pensiya fondiga ajratmalar, kasaba uyushmalari federatsiyasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va boshqalar.

3. Davr xarajatlariga kiritiladigan soliqlar: mol-mulk solig'i, er solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va boshqalar.

4. Korxonalar foydasidan to'lanadigan soliqlar: daromad (foyda) solig'i, infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq va boshqalar.

Respublikamizda asosan soliqlar byudjet tizimi daromadlarini shakllantiradi. Davlat byudjeti tizimi mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini moliyaviy mablag' bilan ta'minlaydi va bu O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimida umumrespublika byudjeti etakchi bo'g'indir. U umumdavlat resurslarining bir qismi bevosita davlat hokimiyatining ijro etuvchi va farmoyish beruvchi oliy organi - O'zbekiston Respublikasi hukumatida markazlashuvini ta'minlaydi. Markazlashgan resurslar umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan, umuman olganda jamiyat manfaatlarini ifodalaydigan tadbirlarni (xalq xo'jaligi ahamiyatidagi qurilishlarni, eng muhim ijtimoiy tadbirlarni, mudofaa, boshqaruv, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari, davlatning moddiy va moliyaviy zaxiralarini) mablag' bilan ta'minlashga ishlatiladi. Umumrespublika byudjeti orqali milliy daromadni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahriga taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni izga solib turiladi. Davlat umumrespublika byudjetidan davlat byudjetining bu bo'g'ini ijrosi yuzasidan respublikadagi hamma ishlarni muvofiqlashtirish uchun foydalanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining byudjeti pul mablag'larini respublikaning tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari amalga oshiradigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tadbirlarini moliyalashtirish uchun markazlashtiradi.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan tadbirlar bilan to'g'ri olib borish imkonini beradi, mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjet daromadlarining ko'payishi va resurslarning tejamkorlik bilan sarflanishi to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qiladi, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning yuksalish sur'atlari to'g'ridan-to'g'ri mahalliy xo'jalik zahiralarini safarbar qilish, mablag'larni tejab ishlatish borasidagi ishlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'ladi, bu esa o'z navbatida umuman O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam beradi. Mahalliy byudjetlardan uy-joy-kommunal xo'jaligi va obodonlashtirish, maorif va sog'liqni saqlash muassasalari (maktablar, kasalxonalar, maktabgacha tarbiya muassasalari va boshqalar), ijtimoiy ta'minot sohasidagi tadbirlar mablag' bilan ta'minlanadi.

1.2. Davlat byudjetining daromadlarini soliqlar orqali shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari

Mustaqillik yillarida O'zbekiston o'zining mustaqil soliq tizimiga ega bo'ldi va uni takomillashtirish borasida yangi izlanishlar davom etmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Respublika iqtisodiyotida soliqlarning tutgan muhim o'rni borligini nazarga olgan xolda Respublikada olib borilayotgan soliq islohotlariga katta e'tibor berish lozim. Toki bu islohotlar Respublikamiz iqtisodini ravnaq topishiga, aholi turmush darajasini ko'tarishga doimo xizmat qilsin.

2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining tasdiqlanishi soliq tizimini isloh qilishning hozirga qadar amalga oshirilayotgan uchinchi bosqichining boshlanishi ifodasi ekanligi tamoman qonuniy holdir.

Soliq kodeksi amalga kiritilishi bilan soliqqa tortishning barcha asos

bo‘luvchi me‘yorlarini yagona hujjatga jamlash; soliq imtiyozlarini tizimlashtirish; foyda, mol-mulk, qo‘shilgan qiymatni hisobga olish va soliqqa tortishning xalqaro tizimini joriy etishga imkon yaratildi.

Uchinchi bosqichda yuridik shaxslarga, birinchi navbatda kichik va o‘rta korxonalar uchun soliqqa tortish, hisobga olish va hisobotning soddalashtirilgan tizimi barpo etildi. Kichik tadbirkorlik sub‘ektlari ixtiyoriy asosda umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig‘imlar jamlanmasi o‘rniga yagona soliq to‘lay boshladilar. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son qarori bilan Kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo‘llash tartibi tasdiqlandi. 2005 yil 15 iyundan kichik korxonalar yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2699-sonli qarori bilan 2017 yilgi parametrlari tasdiqlandi va Respublikamiz soliq qonunchiligiga bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Ushbu o‘zgarishlar Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan eng muhim asosiy ustuvor vazifalar:

- Soliq yukini kamaytirish;
- Soliq ma‘murchiligini takomillashtirish;
- Soliqlarning rag‘batlantiruvchilik rolini oshirish;
- Soliqqa tortishning soddalashtirilgan hisobiga tadbirkorlik sub‘ektlarining real daromadlarini oshirish, ularning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va rag‘batlantirishga qaratilgan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida soliq tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan Farmon va Qarorlar soliq siyosatini erkinlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy sohani rag‘batlantirish, soliq yukini kamaytirish hamda soliq ma‘murchiligini takomillashtirishga qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagi "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni,

litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan respublikada qulay ishbilarmonlik muhitini vujudga keltirish maqsadida moliyaviy va soliq hisobotlari shakllarini qisqartirish, ularni taqdim etish mexanizmini takomillashtirish tadbirlari belgilanib, unga ko'ra soliq organlariga taqdim etiladigan 2 ta moliyaviy hisobot shakllari bekor qilindi, 11 turdagi soliq hisobotlari va boshqa ma'lumotlarni birlashtirib 5 taga tushirildi, 12 turdagi soliq hisobotlarini taqdim etish davriyligi qisqartirildi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona soliq siyosati natijasida ilgari faqat fiskal vazifalarni bajargan davlat soliq xizmati organlari bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan ko'p funktsiyali davlat boshqaruvi organiga aylantirildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yaratilgan "Elektron hukumat" tizimi tarkibiga kiruvchi Davlat soliq qo'mitasining "My.soliq.uz" rasmiy sayti soliq ma'murchiligini takomillashtirishda aholining yanada faol qatnashishini va davlat soliq xizmati organlari faoliyatining shaffoqligini ta'minlashda qulay sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog'liq bo'ladi. Oddiy qilib aytganda ustqurmaga ham bevosita bog'liqdir.

Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy siyosat o'z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo'linadi. Iqtisodiy siyosat ham o'z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o'rinda soliq siyosatining mazmuniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilganidek, soliq siyosati - bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid

huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to'lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni ta'minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 31 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida» gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida» gi (1991 yil 15 fevral), «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmaganlarning daromad solig'i to'g'risida» gi (1991 yil 15 fevral), «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida» gi (1993 yil 7 may) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari kabi me'yoriy hujjatlardan iborat bo'lgan bo'lsa, 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonuni yuqoridagi hujjatlarning ayrimlarini o'z kuchini yo'qotishiga olib kelgan bo'lsa, ayrimlarining huquqiy bazasini kengayishiga, kuchayishiga xizmat qilib kelmoqda. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida» gi Qonunga muvofiq, shu kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga soliqlarni to'lash majburiyati ham kiritilgan: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashga majburdirlar»⁷. Shuningdek, respublikamiz hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolati haqidagi jumlar keltirilgan: «O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat

⁷ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston» 2017-yil 51-modda.

Oliy Majlis haqlidir»⁸.

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi. Hozirgi paytda Respublikamiz soliq siyosatining asosi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda o'z aksini topayotgan iqtisodiy rivojlanishning besh tamoyilidir. Soliq siyosati ana shu tamoyillar asosida tashkil etilgan bo'lib, soliq sohasidagi samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

1-bob bo'yicha xulosa

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida soliqlar mohiyati va mazmuniga ko'ra ko'plab milliy xususiyatlarga ega bo'lib ko'p qirrali shakllarda namoyon bo'ladi va natijada har bir davlatning o'z soliq tizimi shakllanib boradi. Soliqlar har qanday davlatning qaror topishi va amal qilishining obyektiv zaruriyati bo'lib hisoblanadi. Ushbu obyektiv zaruriyat uning mohiyatini belgilab beradi.

Soliqlarni ta'riflashdagi fikrlarda dunyo, jumladan, mamlakatimiz olimlarida ham umumiylik va xususiylik mavjuddir. Xo'jalik faoliyatini tashkil qilish hamda boshqarishning ma'muriy rejalashtirish shakli va uslublari tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish, soliqlar va soliq mexanizmiga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirishni taqozo etadi. Ular bozor iqtisodiyoti sharoitida ikkinchi darajali iqtisodiy kategoriyadan davlatning jamiyat iqtisodiy hayoti, korxonalar, tashkilot va fuqarolarning xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiladigan quvvatli vositasiga aylanadi.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda yangi soliq tizimi va uning amal qilish mexanizmining umumiy asoslari ishlab chiqilganiga qaramasdan, bu sohada hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar ko'p. Soliqlar hamda soliq muammolarini yetarli darajada nazariy jihatdan o'rganilmaganligi, amaliyotda ulardan samarali foydalanish jarayoniga muayyan darajada to'sqinlik qilmoqda.

⁸ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston» 2017-yil 123-modda.

2-BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQ TURLARIDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

2.1. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti solikli daromadlarining amaldagi holati tahlili

O'zbekiston Respublikasi hududida umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning erkinlashuvi va islohatlarning chuqurlashuvi jarayoni budjet-soliq tizimini ham muntazam takomillashtirib borishni taqoza qiladi. Budjet-soliq siyosati moliya tizimi islohatlarining muhim yo'nalishi sifatida iqtisodiyotni tartibga solish hamda uning barqarorligini ta'minlash jarayonida har qachongidan ham muhimroq bo'lib bormoqda.⁹

Muayyan yildagi budjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini va unda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ayrim o'zgarishlarni, shak-shubhasiz, budjet daromadlari hajmining (miqdorining) qanday ekanligi belgilab beradi. Shu ma'noda budjet siyosatisiz soliq siyosatini yoki soliq siyosatisiz budjet siyosatini to'g'ri tasavvur etib bo'lmaydi. Ikkalasining o'zaro mushtarakligi, bir-birini taqoza etishi va vobastaligi budjet-soliq siyosatining yagonaligidan darakdir.¹⁰

Iqtisodiy adabiyotlarda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi soliqlar tizimi deb tushuniladi. Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi xududida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi hamda ular O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan joriy etiladi va bekor qilinadi.

Soliqlarning umumdavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo'linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z budjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga va

⁹ Vahobov A.V., Qosimova G. A, Jamolov X.N. Budjet-soliq siyosati yaxlitligi. Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2005,3-bet

¹⁰ T.S. Malikov, P.T.Jalilov. Budjet-soliq siyosati, - T.: "akademnashr" nashriyoti, 2011-yil.

boshqa majburiy to'lovlarga ega bo'lishi kerak.

Respublika hukumati umumdavlat miqyosida katta vazifalarni, jumladan, sog'liqni saqlash, maorif, fan, mudofaa, xavfsizlikni saqlash, aholini ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator shu kabi strategik vazifalarni bajaradi (1-jadval).

Umumdavlat va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo'lib, ular budjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar hisoblanadi.

1-jadval

Soliqlar va majburiy to'lovlarning umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linishi¹¹

Umumdavlat soliqlari va majburiy to'lovlar	Mahalliy soliqlar va yig'imlar
1. yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i 2. jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 3. qo'shilgan qiymat solig'i 4. aksiz solig'i 5. yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar 6. suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 7. bojxona to'lovlari 8. davlat boji 9. ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar 10. Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan umumdavlat soliqlari: 11. yagona soliq to'lovi 12. tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq	1. mol-mulk solig'i 2. yer solig'i 3. obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i 4. jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq 5. ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan mahalliy soliq: 6. yagona yer solig'i

¹¹O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, O'RQ-136-son Qonuni bilan tasdiqlangan, 2008-yil, 3- bob, 23-modda asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari iqtisodiy erkinlashtirish, davlat boshqaruvchilik funksiyasini qisqartirish va uning iqtisodiyotga aralashuvini cheklashdan iborat. Shu bilan birgalikda milliy ishlab chiqarishni shakllantirish va rivojlantirish, budjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlash, budjet kamomadiga yo'l qo'ymaslik muhim ustuvor vazifalar qatoriga kiradi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, soliqlar orqali iqtisodiyotni boshqarish mexanizmini to'g'ri, oqilona ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish lozim bo'ladi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishi bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan qator ilmiy asoslangan soliqlarni joriy etish va shu orqali mavjud soliq tizimini tubdan qaytadan tashkil etishdan iborat bo'ldi. Soliq siyosatining keyingi yo'nalishi esa joriy etilgan soliqlarni samarali amal qilishini ta'minlash maqsadida soliq munosabatlarini amalga oshiruvchi tegishli muassasalarning tashkil etishga qaratildi. Xususan, dastlab Vazirlar Mahkamasi qoshida Soliq bosh boshqarmasi tashkil etilgan bo'lsa, 1994 yilga kelib bu boshqarma Davlat Soliq Qo'mitasiga aylantirildi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Bundan ko'rinadiki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida soliq siyosatida asosan tashkiliy jihatlarga e'tibor qaratildi, ya'ni soliqlarni joriy etish va soliq siyosatini bevosita amalga oshiruvchi tegishli muassasalar shakllantirildi.

Bu davrdagi soliq siyosatining asosiy xususiyatlaridan biri soliqlarning ko'proq fiskal ahamiyat kasb etishida, ya'ni ko'proq e'tibor davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratildi.

Jahon soliq siyosati tajribasida soliqqa tortishning quyidagi yo'nalishlariga katta e'tibor beriladi:

- 1) har xil mulk shakllariga moslangan korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik yuritishiga mumkin qadar iqtisodiy sharoit yaratish, ularni bozor munosabatlariga kirib borishiga har tomonlama yordamlashish;

- 2) ijtimoiy-zaruriy umumdavlat vazifalarini bajarish uchun davlatni kerak

bo‘lgan moliyaviy manbalar bilan ta’minlash;

3) bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tashkil qilishda qatnashish, ishsizlarni ish bilan ta’minlash, iqtisodiy nochorlarga yordam berish;

4) aholi turmush darajasini zaruriy me’yorda saqlab turish imkonini izlash va ta’minlash, soliqqa tortilmaydigan daromad minimumini vaqti-vaqti bilan oshirib borish. Bunda «iste’mol savatchasi» ma’lumotlarini e’tiborga olish.¹²

O‘zbekiston Respublikasida soliq tushumlari 2018-yilda davlat budjeti daromadlarining(maqsadli jamg‘armalarsiz) 77,9% ni tashkil etgan. (2-jadval)

2-jadval

Soliq tushumlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi %da¹³

Ko‘rsatgichlar	2013yil	2014yil	2015yil	2016yil	2017yil	2018yil (reja)
Budjet daromadlari (mlrd.so‘m)	26223,2	31 730,5	36493,3	40505,8	44469,6	62 229,5
Jami soliqlar va yig‘imlar(mlrd.so‘m)	23 640,5	29 256,8	32808,3	36184,9	40810,1	48476,0
Ulushi	90%	92.2%	89.9%	89.3%	91.7%	77.9%

Soliqlarning fiskal funksiyasi orqali soliqqa tortishning asosiy vazifasi, ya’ni davlat moliyaviy mablag‘larining shakllanishi, shuningdek, davlatning umumdavlat va maqsadli dasturlarini amalga oshirish uchun mablag‘larni jamg‘arish vazifalari amalga oshiriladi. Soliq tushumlari davlat budjeti daromadlarining asosini tashkil qiladi. Masalan, AQSHda soliq tushumlari davlat


¹² Yahyoev Q. «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». T. «G‘afur G‘ulom» 2000. y. 25 bet.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda PQ-№1887-sonli, 2013 yil 25 dekabrda PQ-№2099-sonli, 2014 yil 4 dekabrda PQ-№2270-sonli, 2015 yil 22 dekabrda PQ-№2455-sonli, 2016 yil 27 dekabrda PQ-№2699-sonli, 2017 yil 29 dekabrda PQ-№3454-sonli Qarorlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

budgetining 98%, Buyuk Britaniyada 97%ni, Fransiyada 91% ni tashkil etadi.

Iqtisodiy Hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT)ga a'zo 24 davlatda soliq tushumlarining budget daromadlaridagi ulishi 78% (Norvegiya)dan 97,8% (Italiya)gacha tebranib turadi.

MDH davlatlarida soliq tushumlarining davlat budgetidagi ulushi ko'rsatkichi Rossiyada-82.7%, Ukrainada-82.2%, Qozog'istonda-97%, Belarus Respublikasida 97,3%ni tashkil etadi.¹⁴ Bevosita soliqlar bo'yicha soliq yukini izchil kamaytirish soliq siyosatining samaradorligini YaIM ga nisbatan ular tushumining barqaror kamayishi tendentsiyasi ham isbotlaydi. Soliq tizimini takomillashtirishda ustuvor ahamiyat bilvosita soliqqa tortishga qaratilgan. Bilvosita soliqlar tovarlarga nisbatan qo'shimcha bo'lgani holda, pirovard natijada ishlab chiqaruvchining moliyaviy holatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi.




1-rasm. Davlat budjeti daromadlari YAIMGa nisbatan %da¹⁵

¹⁴ Statsbornik SNG. – M.2012

¹⁵ www.stat.uz va www.mf.uz saytlari ma'lumotlari asosida muallif tamonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, Davlat budjeti daromadlari YaIMga nisbatan 1998-yili 32.4%dan 2016-yil 20.5%ga yoki 11.9 foizli punktga pasaygan, bu esa YaIMga soliq bosimining birmuncha pasayganligidan dalolat beradi. Demak, Davlat budjeti daromadlari YaIMga nisbatan qancha ulushni tashkil etishi tahlil qiladigan bo'lsak, bosqichma-bosqich tushib kelganligining guvohi bo'lamiz. 1998-yildan boshlab 2007-yilgacha keskin tarzda tushib kelgan, lekin davlat budjeti daromadlarini mustahkamlash uchun ancha keng ko'lamdagi islohatlarga yo'l qo'yildi, shuning uchun 2008-yildan boshlab YaIMga nisbatan davlat budjeti daromadlari bosqichma-bosqich optimallashtirildi. Oxirgi to'rt yilni tahlil qilar ekanmiz, undagi ko'rsatkich 22%dan 20,5%gacha pasaydi yoki 1.5 foizli punktga pasayganini ko'rishimiz mumkin.

Quyida Davlat budjeti daromadlar tarkibi YaIMga nisbatan yillar davomida dinamikasi tahlil qilingan. Eng katta ulushni egri soliqlar, keyingi o'rinlarda mos ravishda to'g'ri soliqlar, resurs to'lovlari va mol-mulk soliqlari o'rin egallagan.




2-rasm. Davlat budjeti daromadlari tarkibi YaIMga nisbatan %da¹⁶

¹⁶ www.mf.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tamonidan tayyorlandi.

1998-yilda davlat budjetiga to'g'ri soliqlarning tushumi YaIMning 10.2%, 2000-yilda 7.5%ni tashkil etgan. 2001-2002-yillarda bu ko'rsatkich asta-sekinlik bilan mos ravishda 7.4% va 6.8%ga pasaydi. Budget daromadlarining kamayishi yuridik va jismoniy shaxslarni daromad solig'iga tortish stavkasining pasaytirilishi oqibatida to'g'ri soliqlar bo'yicha tushumlarni YaIMga nisbatan 2002-yili 6.8% dan 2003-yili 6.4% gacha va boshqa daromadlarni 2002-yili 2.2%dan 2003-yili 1.1% gacha kamayishi hisobiga ro'y berdi.

Egri soliqlar bo'yicha tushumlarni YaIMga nisbatan ulushi 1998-yili 16.6%, 1999-yili 16.4%, 2000-yili 16%, 2001-yili 13.5%, 2002-yili 13.8%gacha pasaydi. 2003-yilda YaIMga nisbatan egri soliqlar ulushi 13.8%dan 14% gacha, resurs to'lovlari va mulk solig'i ulushi esa tegishli soliqlarni qat'iy belgilangan tarif stavkalariga o'tish natijasida 1.9%dan 2.3%gacha oshdi.



3-rasm. Davlat budjeti daromadlari tarkibi %da¹⁷

Keltirilgan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, 2012-2016 yillar mobaynida to'g'ri soliqlarning mamlakat davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, 2012-yilda 25.4%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2016-yilga kelib 24.0% gacha pasaygan. Bu esa,

¹⁷www.mf.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

xalqaro budjet amaliyotida shakllangan tendentsiyalar nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki, mazkur tendentsiyalarga muvofiq, bozor iqtisodiyoti sharoitida to'g'ri soliqlarning davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i barqaror tarzda saqlab turilishi yoki o'sish tendentsiyasiga ega bo'lishi lozim. So'ngi besh yillikni tahlil qilar ekanmiz, egri soliqlar, to'g'ri soliqlar, resurs to'lovlari va mulk solig'larining yillar bo'yicha pasayganligini, boshqa daromadlarning esa bir muncha oshganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, egri soliqlar 11.3% dan 10.6% gacha, to'g'ri soliqlar 5.5%dan 4.9% gacha, resurs to'lovlari va mulk solig'i 3.3% dan 2.7% gacha kamaygan, boshqa daromadlar esa 1.7% dan 2.4% gacha oshgan.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti ijtimoiy xarajatlarini o'sish tendentsiyasiga ega ekanligi davlat budjeti daromadlari hajmini uzluksiz oshirib borishni taqozo qiladi. Bu esa, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i kabi barqaror daromad manbalarini budjet daromadlarining tarkibidagi yuqori salmog'ini ta'minlashni taqozo qiladi. Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2012-yilda egri soliqlarning budjetdagi salmog'i 49.0% ni, 2014-yilda 53.1% ni, 2016-yilda esa 51.5%ni tashkil etgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, to'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib, bir-biri bilan o'zaro bog'langandir.

Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Evropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi¹⁸ Bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet-soliq siyosatining asosiy vazifalari iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayoni o'stirishga va uning samaradorligini oshirishga, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Mahalliy soliqlar

¹⁸ Panskov V.P., Knyazev V.G. Nalogi i nalogooblojeniya. –M.: MTSFER, 2003. –s. 57-59.

va boshqa majburiy to'lovlar stavkalari soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

2.2. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda to'g'ri soliqlarning hozirgi amaliyoti tahlili

Milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy metodi soliqlar hisoblanadi. Ular yordamida byudjet daromadlarining asosiy salmog'i ta'minlanadi. Turli mamlakatlar markaziy byudjetlarining daromadlarida soliq tushumlari qariyb 90%ni tashkil etadi.

Byudjetning daromadlar qismini to'ldirishning manbalaridan biri byudjet tizimida boshqa darajada turgan byudjetdan dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar yoki mablag'larni qaytarilmaslik va tiklamaslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir.

Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi byudjetning daromadlarida o'z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklanmaydigan shaklda o'tkazilayotgan mablag'lar ham byudjetning shunday daromadlari tarkibiga kiradi.

O'zbekiston soliq tizimining rivojlanishi negiziga bir qancha taraqqiy etgan xorijiy davlatlarda asosiy hisoblangan va o'z samaradorligini ko'rsatgan soliq tizimining tuzilish tamoyillari asos qilib olingan. Ular orasida davlat tomonidan qattiq markazlashtirilgan boshqaruv asosida soliq tizimini bir butunligini ta'minlaydigan tizimlilik; soliqni undirishning keng qonunchilik asosi; ayrim hollarda soliq to'lovchiga soliq solishning aniq tizimini tanlash huquqi berilgan soliqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik; soliqlarni umumdavlat (markaziy) soliqlari va mahalliy soliqlarga qat'iy bo'lish; har yili soliqlar stavkalarini aniqlash hamda davlat tomonidan har yili qabul qilingan davlat budjeti to'g'risidagi qonun doirasida siyosiy o'zgarishlar va iqtisodiy konyukturani hisobga olgan holda, soliq

siyosatini amalga oshirish imkoniyati bilan ta'minlangan soliq tizimining qayishqoqligi (moslashuvchanligi); mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan, rivojlanish sur'atlari, iqtisodiy sohalarning moliyaviy ahvoli, inflatsiya darajasi, viloyatlar va tumanlar iqtisodiy rivojlanishini tenglashtirish kabi omillar hisobga olingan, yorqin ifodalangan soliq tizimining ijtimoiy yo'nalishi tamoyillari ajralib turadi.

3-jadval

To'g'ri soliqlarning davlat budjeti daromadlaridagi salmog'i¹⁹

Ko'rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil		2017 yil		2018 yil (reja)	
	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	%da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz -jami	25104,9	100	30160,8	100	36184,9	100	40 505,8	100	44469,6	100	62 229,5	100
To'g'ri soliqlar	6583,1	26,2	7790,4	25,8	8554,3	23,6	9 338,5	23,05	10674,2	24,0	12 805,4	20,6

Jadval ma'lumotlaridan ma'lum bo'lyaptiki, joriy yil davlat byudjeti daromadlari 62229.5 mlrd so'mni tashkil etmoqda. Bu mamlakatda 2018 yilda yaratilayotgan YaIMning summasiga nisbatan 21.4 (290,6 trln. so'm: 62,2 trln. so'm) foizni tashkil etmoqda. Byudjet daromadining 1/5 qismidan sal ko'prog'ini to'g'ri soliqlar tashkil etib, 2013 yilda to'g'ri soliqlar 6583,1 mlrd so'mni, ya'ni 26,2 foizni tashkil etgan bo'lsa 2018 yil rejada 12805,4 mlrd. so'mni 20,6 foizni ta'minlamoqda.

Egri soliqlar guruhiga kiruvchi manbalar byudjet daromadining 53,69 foizini tashkil etib, salmoqli o'rinlardan birini egallab turibdi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimiz soliq tizimini isloh qilish va uning asosiy yo'nalishlarini belgilash muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi kunda respublikamizda o'tkazilayotgan soliq islohotlari natijasida soliq tizimida qator ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasining 2013-2018 yillaridagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Soliqlarni boshqarishning zamonaviy metodi va mexanizmlari joriy etildi, soliq organlarining yaxlit tizimi yaratildi, soliq tizimi xavfsizligini ta'minlash davlat soliq xizmati organlari faoliyatini ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda modernizatsiya qilish hamda ishlarni tashkil etishning zamonaviy shakl va metodlaridan foydalanish samaradorligi oshirilishi va boshqa muhim masalalar hal etilmoqda. Hozirgi amaliyotda Davlat byudjetining to'g'ri soliq daromadlari quyidagi tartibda klassifikatsiya qilinayapti:

4-jadval

2018 yil uchun rejalashtirilgan davlat budjeti daromadlarida to'g'ri soliqlar tarkibi va salmog'i²⁰

№	Ko'rsatkichlar	2018 yil (reja)	
		mlrd. so'm	% da
	Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz -jami	62 229,5	100
1.	To'g'ri soliqlar	12 805,4	20,57
1.1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	2510,9	4,03
1.2.	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalar uchun yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	1907,6	3,06
1.3.	Yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	2 110,5	3,39
1.4.	Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i	5 198,8	8,35
1.5.	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq	1077,6	1,73

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki to'g'ri soliqlar 2018 yil rejada 12805,4 mlrd. so'mni 20,6 foizni tashkil etilishi rejalashtirilmoqda. Ushbu guruh daromadlar tarkibida eng yuqori salmoqni Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i hamda Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i egallamoqda

2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra Soliqlarni to'g'ri va egri soliqlarga guruhlanishi soliqqa tortish ob'ektiga, to'lovchi bilan davlatning o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

²⁰ O'zbekiston Respublikasining 2013-2018 yillaridagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida muallif tamonidan tayyorlandi.

To'g'ri soliqlar to'g'ridan-to'g'ri daromadga va mol-mulkka qaratiladi (soliqqa tortishning bevosita shakli), yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbaidir.

Tovarning bahosida to'lanadigan yoki tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar egri soliqlarga kiradi. Tovar va xizmatlarning egasi ularni sotishda soliq summalarini olib, ularni davlatga o'tkazadi. 1995 yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarining foydasidan olinadigan soliq joriy etildi.

To'g'ri soliqlarga tortishda mablag'larning safarbar qilinishi yangi qiymatni taqsimlash paytida boshlanadi. Davlat daromad olingan paytdayoq uning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qiladi.

Soliq to'lovchining daromadi (ish haqi, foyda, foizlar va hokazo) va uning mol-mulkinging (er, uylar, qimmatli qog'ozlar va hokazo) qiymati to'g'ri soliqlar ob'ekti bo'ladi. Soliqqa tortishning bu shakli egri soliqlarga nisbatan birmuncha progressivdir, chunki u soliq to'lovchining daromadlilikini, oilaviy ahvolini hisobga oladi, soliq daromadni olish bosqichida undiriladi. Bundan tashqari, to'g'ri soliqlarga tortishda soliq to'lovchi o'z solig'ining summasini aniq biladi.

5-jadval

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining davlat budjeti daromadlaridagi salmog'i²¹

Ko'rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil		2017 yil		2018 yil (reja)	
	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz -jami	25104,9	100	30160,8	100	36184,9	100	40 505,8	100	44469,6	100	62 229,5	100
To'g'ri soliqlar	6583,1	26,2	7790,4	25,8	8554,3	23,6	9 338,5	23,05	10674,2	24,0	12 805,4	20,6
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	1239	5,0	1302,3	4,3	1284,8	3,6	1266,0	3,2	1291,1	2,9	2510,9	4,03

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda PQ-№1887-sonli, 2013 yil 25 dekabrda PQ-№2099-sonli, 2014 yil 4 dekabrda PQ-№2270-sonli, 2015 yil 22 dekabrda PQ-№2455-sonli, 2016 yil 27 dekabrda PQ-№2699-sonli, 2017 yil 29 dekabrda PQ-№3454 – sonli Qarorlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

Foyda solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini birlashtirilib yagona foyda solig'i qilib belgilandi. Ikkita soliq birlashishi hisobiga avval foyda solig'i yoki obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha vaqtinchalik imtiyozlarga ega bo'lgan korxonalar endilikda foyda solig'ini ikki barobar qisqartirilgan stavka bo'yicha to'laydilar.

Foyda solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i birlashtirilib, soliq stavkasi amaldagi 15,5 foiz o'rniga 14 foiz qilib belgilandi.

Tijorat banklari uchun 22 foiz qilib belgilash taklif etilmoqda. Tashkilotlar uchun obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i – endi mavjud emas, chunki foyda solig'i tarkibiga biriktirilgan (shu vaqtga qadar 8%). Natijada soliq turlari bittaga kamaydi va umumlashirish hisobiga soddalashtirildi. Yirik tashkilotlar (umumiy tartibda soliq to'lovchilar)dan foyda solig'i – 14% (shu vaqtga qadar 7.5%, biroq obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bilan qo'shib hisoblaganda 15,5%). Natijada yirik tashkilotlar umumiy hisobda kamroq soliq to'lashadi va mablag'larini iqtisod qilishlari mumkin.


Tijorat banklari foyda solig'i – 22% (shu vaqtga qadar 15%, biroq obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bilan qo'shib hisoblaganda 23%). Doimiy muassasa orqali faoliyat yuritadigan norezidentlarning sof foydasidan ikki marotaba soliq olmaslik maqsadida, norezidentlar uchun sof foydadan olinadigan 10 foiz miqdordagi soliq bekor qilindi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining budget daromadlaridagi salmog'i kamayish tendentsiyasiga ega. Ya'ni, uning salmog'i yillar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2013 yilda jami daromadlarga nisbatan salmog'i 5,0 foizni, 2014 yilda mos ravishda 4,3 foizni, 2015 yilda 3,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilda 3,0 foizni tashkil etgan. 2017 yilda 1291,1 mlrd so'mni ya'ni 2,9 foizni tashkil etgan. 2018 yilda esa 2510,9 mlrd so'mni ya'ni 4,03 foizni tashkil etilishi rejalashtirilmoqda. Bu holat yuridik

shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalarini yildan-yilga pasayib borayotganligi bilan izohlanadi.

Foyda solig'ining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari 1991 yilga qadar asosan davlat korxonalari foydasidan ajratiladigan ajratmalar hisobidan shakllanar edi. Ushbu foydadan ajratma davlat tomonidan belgilangan majburiy to'lov bo'lib, u korxonalar balans foydasining 90 foizgacha bo'lgan qismini budjetga olib ketar edi. Qolgan mablag'lar esa korxonalar tomonidan emas, balki yuqori tashkilot topshirig'iga ko'ra tegishli fondlarga taqsimlanar edi.

Daromadning ko'p qismi korxonalar ixtiyorida qolishi ularning investitsion faolligini oshiradi, yangi ishchi o'rinlar ochish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish hamda ish va xizmatlar ko'rsatish uchun yanada keng moliyaviy imkoniyat yaratadi.



4-rasm. Davlat budjeti to'g'ri soliqlari tarkibi %da²²

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Davlat budjeti daromadlarining to'g'ri soliqlar tarkibida eng yuqori ko'rsatkichga ega ekanligini


²²www.mf.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

ko'rishimiz mumkin. 2007-yilda 47.9%, 2010-yilda 45.0%ni, 2016-yilda 42.0%ni tashkil etgan va shu yillar mobaynida qariyb 6 punktga kamaygan.

Yuridik shaxslarning daromadiga soliq esa, 2007-yil 19.9%ni, 2010-yil 18.2%ni, 2016-yil 12.3%ni tashkil etgan, yoki ushbu yillar mobaynida kamayish tendensiyasiga ega bunga sabab qilib yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining yillar davomida pasaytirilganligini ko'rsatishimiz mumkin.

Keyingi o'rinlarda yagona soliq to'lovidan ajratmalar to'g'ri soliqlarning 2007-2016-yillar mobaynida mos ravishda 10.2% dan 14.6% gacha oshgan. Oxirgi yillarda kichik biznes va mikrofirmalarga yaratilgan shart-sharoitlar sababli, soliq to'lovchilar bir muncha oshdi va o'z o'rnida ushbu soliqning to'g'ri soliqlar tarkibidagi ulushini oshirdi.

Obodonlantirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i 2007-yil 11.4%ni, 2008-yil 12.4%ni, 2010-yil 10.8%ni, 2013-yil 9.4%ni, 2014-yil 7.7% va 2016-yil 7.3%ni tashkil etgan. Ushbu yillar davomida kamayish tendensiyasiga ega 2007-2016-yillar oralig'ida 4 punktga pasaygan.



5-rasm. Resus to'lovlari va mol-mulk solig'i tarkibi %da²³

²³www.mf.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tamonidan tayyorlandi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i tarkibining asosiy qismi yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq zimmasiga to'g'ri keladi. Jumladan, 2007-yilda 61.9%ni, 2008-yilda 66.4%ni, 2010-yilda 61.3%ni, 2013-yilda 56.3%ni, 2015-yilda 52.2%ni, 2016-yilda 47.4%ni tashkil etgan. Ushbu yillar mobaynida yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqning ulushi 61.9%dan 47.4% ga kamaygan, yani 14.5 punktga pasaygan.

Mulk solig'i va yer solig'i 2007-2016-yillar oralig'ida o'sish tendensiyasida bo'lgan. Jumladan, mol-mulk solig'i 19.2% dan 31.3% gacha oshgan, yer solig'i 15.9%dan 18.2% gacha oshgan. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq kam ulushga ega bo'lib, 2007-2016-yillarda mos ravishda 2.9%dan 3.1% gacha ko'paygan, lekin bu o'zgarish sezilarli emas. Keyingi o'rinlarda soliq tizimida mavjud ba'zi soliqlar, ya'ni iqtisodiy mohiyati va davlat budjetidagi salmog'i haqida atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish xususan, foydadan ajratmalar o'rniga daromad solig'ini joriy etish zarurati paydo bo'ldi va 1992 yildan boshlab barcha turdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar "Daromad" solig'ini to'lashga o'tdilar.

Daromadlar oladigan (mol-mulkka va shu kabilarga egalik qiladigan) xo'jalik yurituvchi sub'ektlar to'g'ri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi, narxlarga ustamalar orqali soliq yuki yuklab qo'yiladigan tovarning iste'molchisi esa egri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi.

Amaliyotda nafaqat egri soliqlar, shu bilan birga to'g'ri soliqlarni ham iste'molchilar zimmasiga o'tkazish imkoniyati mavjuddir. Masalan, korxonalar to'laydigan soliqlar yuki inflyatsiya davrida ko'pincha narx-navoni oshirib yuborish orqali iste'molchilar zimmasiga yuklab boriladi.

To'g'ri soliqlar real va shaxsiy soliqlarga bo'linadi.

Real soliqlar soliq to'lovchi mol-mulkingining ayrim turlaridan (er, uylardan) kadastr asosida undiriladi, to'lovchining haqiqiy daromadliligini emas, balki o'rtacha daromadliligini hisobga oladi. Soliqqa tortish ob'ektiga qarab quyidagilar

real soliqlarga kiradi: erga oid, uy-joylarga doir, kasb-hunarga tegishli, qimmatli qog'ozlardan olinadigan soliqlar. Real soliqlar tashqi belgilarga asoslanadi, soliqqa tortish mol-mulkning kadastr bo'yicha aniqlanadigan o'rtacha daromadliligi bo'yicha amalga oshiriladi. O'z mohiyatiga ko'ra bunday soliqlar regressiv tusga egadir.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, davlat faoliyatining kengayishi shaxsiy soliqlarga o'tilishini taqozo etdi, chunki real soliqlar fiskal jihatdan ham, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham foydali bo'lmay qoldi. Real soliqqa tortishning ayrim unsurlari, odatda, mahalliy soliqlar tizimida asosan sanoat jihatdan taraqqiyot etgan mamlakatlarda saqlanib qolgan. Shaxsiy soliqlar ravnaq topmoqda, bular daromadlar manbaida yoki deklaratsiya bo'yicha undiriladigan jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlari va mol-mulkidan olinadigan soliqlardir. Real soliqdan farqli ravishda shaxsiy soliqqa tortishda ob'ekt (daromad, mol-mulk) har bir to'lovchi uchun yakka tartibda hisoblab chiqiladi, uning moliyaviy ahvoli (oila soni, qarzdonlik va hokazo) e'tiborga olinadi. Rivojlangan mamlakatlarda soliqqa tortish ob'ektiga qarab shaxsiy soliqlarning quyidagi turlarini farqlanadi: daromad solig'i, pullik sarmoyalardan tushadigan daromatlardan olinadigan soliq, sarmoyaning o'sishidan olinadigan soliq, korporatsiyaning foydasidan olinadigan soliq, merosdan va sovg'a qilishdan olinadigan soliq, mol-mulkdan olinadigan soliq, jon boshiga olinadigan soliqlar shular jumlasidandir.

Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi.

Korxonalar va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo'la olmaydi, soliq munosabati bo'lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo'li bilan davlat byudjetiga majburiy tartibda to'lanishi yoki undirilishi lozim.

Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tgan yuridik va jismoniy shaxslar:

O'zbekiston soliq tizimida soddalashtirilgan (ixchamlashtirilgan) soliq tizimiga o'tgan yuridik va jismoniy shaxslar ham mavjud bo'lib, ular quyidagi soliqlarni to'laydilar:

1) Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi to'lanishini nazarda tutuvchi soliq solish tizimi qo'llanilishi mumkin. Aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarayotgan, shuningdek foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshirayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar Soliq kodeksida (350-modda) belgilangan tartibda aksiz solig'i va yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar to'laganlari taqdirda yagona soliq to'lovi ularga tatbiq etilmaydi. Yagona soliq to'lovi to'lovchilarda import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini va qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash majburiyati ham saqlanib qoladi.

2) Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilish bundan mustasno), suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, yer solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, boshqa mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar (mol-mulk solig'i, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im bundan mustasno) o'rniga budjetga 2007 yil 1 yanvarga qadar yalpi daromad solig'i to'lar edilar. 2007 yil 1 yanvardan boshlab esa savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromad va mol-mulk soliqlarning o'rniga soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqsiz yagona soliq to'lovini to'lash rejimiga o'tkazildi.

3) Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari aksiz solig'ini va tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilganlik uchun qo'shilgan qiymat solig'ini istisno etganda, amaldagi barcha umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig'imlar o'rniga o'zi etishtiradigan qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha yagona yer solig'ini to'laydilar. Yagona yer solig'ini to'lash tartibi va stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

4) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha soliq solishning o‘zi belgilagan stavkalar bo‘yicha soliqning qat’iy belgilangan summasini to‘lashni nazarda tutuvchi alohida tartibini belgilashi mumkin.

5) Konchilik sanoati tarmoqlarining ayrim korxonalari uchun qo‘shimcha foyda solig‘i to‘lanishini nazarda tutadigan foydaning bir qismiga soliq solishning alohida tartibi joriy etilishi mumkin. Qo‘shimcha foyda solig‘i to‘lovchilar, uni to‘lash tartibi va soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

6) Lotereyalarni tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq o‘rniga yalpi tushumdan yagona soliq to‘lovini to‘laydilar. Yalpi tushumdan yagona soliq to‘lovi stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

Soliqlarning guruhlariga ajratilishi: O‘zbekiston soliq tizimida amalda bo‘lgan soliqlarni ob‘ekti va iqtisodiy mohiyati bo‘yicha bir necha guruhlariga ajratib o‘rganish mumkin.

Soliqlar soliqqa tortish ob‘ektiga qarab to‘rt guruhga bo‘linadi:

Oborotdan olinadigan soliqlar

Daromaddan olinadigan soliqlar

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar

Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, bojxona boji va yer qa‘ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo‘yicha ilgari dek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o‘lchanadi. Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq to‘lovi ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

To'g'ri va egri soliqlarning tarkibi²⁴

To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar
1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	1. Qo'shilgan qiymat solig'i
2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	2. Aktsiz solig'i
3. Yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	3. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	4. Bojxona to'lovlari va boshqalar.
5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, ixtisoslashtirilgan ulgurji savdo korxonalarining yalpi daromadidan olinadigan soliqlari kiradi. Bu guruh soliqlarga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarning yagona yer solig'i va yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaxslarning yer soliqlarini kiritish mumkin. Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqni huquqiy to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq

²⁴ Soliq Kodeksiga asosan muallif tomonidan tuzilgan

yukini boshqalar zimmasiga yuklatish holati bu yerda bo'lmaydi. Bu soliqlar tarkibiga barcha daromaddan to'lanadigan soliqlar va mol-mulk (resurs) soliqlari kiradi. Jahon soliq amaliyotida Davlat budjeti daromadlari tarkibida to'g'ri va egri soliqlarning nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga baho berish mumkin. Masalan. AQShda budjet daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar salmog'ining 90 foizga yaqin bo'lishi bu mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanganligidan darak beradi.

To'g'ri soliqlardan to'g'ridan-to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari oshirilsa, korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari kamaya boradi va oxir-oqibatda mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, bu guruh tarkibiga kiruvchi soliqlarning stavkalari to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog'liqdir.

Egri soliqlarni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin, soliq og'irligini haqiqatdan ham budjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni egri soliqlarning barchasi bevosita iste'molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo'shimcha ravishda qo'yiladi.

Soliq munosabatlari mavjud bo'lishining asosiy shartlaridan biri - bu davlatning mavjudligi bo'lsa, ikkinchi sharti bo'lib soliqlarni to'lashga qobil bo'lgan soliq to'lovchilarning mavjudligidir. O'zbekiston soliqlar tizimi manbaiga qarab soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliq'larga ajratiladi.

Yuridik shaxslar soliq to'lovchi bo'lishi uchun yuridik shaxs maqomini olganidan tashqari, albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad olgan bo'lishlari zarur yoki tovarlar (ish, xizmatlar) sotishdan oborotga ega bo'lishlari hamda statistika idoralarida, hokimiyatlardan ro'yxatdan o'tgan (kodga ega) bo'lishlari shart.

2-bob bo'yicha xulosa

Ta'kidlash joizki, respublika soliq tizimi juda ko'p o'zgarishlar asosida shakllanib keldi. Bunday o'zgarishlar asosan iqtisodiy islohotlarga xamoxang olib borilgan soliqqa oid islohotlar natijasi ularoq ro'y berdi. Soliq tizimida amalga oshirib kelingan islohotlar asosan soliq yukini kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliq mexanizmi vositasida rag'batlantirish hamda resurslardan samarali foydalanishni soliq instrumenti orqali tartibga solishga qaratilganligini ta'kidlash joiz.

Soliq siyosatidagi o'zgarishlarni tahlil qilar ekanmiz, Birgina yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasi pasaytirilishini oladigan bo'lsak, uning stavkasi 1994-yilda 45 foiz bo'lgani holda, yillar davomida muntazam pasaytirilib, 2017-yilda 7,5 foizgacha tushirilganini ko'ramiz.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliq mexanizmi vositasida rag'batlantirish borasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan yana bir muxim tadbir, bu - mikrofirma, kichik korxon va fermer xo'jaliklari uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasining 25 foizdan 15 foizga tushurilishdir.

Qator asosiy soliqlar yukini kamaytirish barobarida, oxirgi yillarda mamlakatimizda ayrim soliqlar stavkalarining oshirib borilayotganligini ham ta'kidlash joiz. Xususan, yo'llanib ishlovchi fuqarolarning pensiya jamgarmasiga sug'urta badali stavkasi oshirilishi davom ettirilmogda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq tizimini yanada takomillashtirish, isloh qilishning zamonaviy yo'llarini izlash, soliqlarning davlat budjetiga o'z vaqtida tushishining mukammal yo'llarini qo'llash, xorijiy rivojlangan davlatlar soliq tizimidagi ijobiy tajribalarni amaliyotga tadbiiq qilish soliq siyosatining muhim masalalari bo'lib qolmogda.

3-BOB. O'ZBEKISTON REESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA TO'G'RI SOLIQLAR TUSHUMI BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

3.1. Davlat budjetiga soliqlarning kelib tushishini ta'minlash masalalari

Soliqlarning budjetga tushumining o'z vaqtidaligini ta'minlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 59-moddasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha bajarilmagan majburiyatlari bo'lgan soliq to'lovchi o'zining bank hisobvarag'ida pul mablag'lari bo'lishidan qat'iy nazar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilangan to'lash muddatidan kechiktirmay ularni xizmat ko'rsatayotgan bankka to'lash uchun to'lov topshiriqnomasini taqdim etishi zarurligi belgilab qo'yilgan.²⁵

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq va barkaror yig'ilishini ta'minlash, davlatning moliya tizimi mustahkamligining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda, mazkur masalaning yechimi solik ma'murchiligi bilan uzviy bog'liq bo'lib, mamlakatimiz soliq tizimini takomillashtirish xususiy biznes va davlat o'rtasidagi optimal munosabatlarni shakllantirish, soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligi sifatini yaxshilash ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Soliqlar yordamida iqtisodiyotni tartibga solish davlatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy masalalaridan bo'lib, uning yo'nalishi mamlakatning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini to'liq bajarilishini ta'minlashga qaratiladi.

Soliq ma'murchiligi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni xisoblash, davlat budjetiga o'tkazish va soliq qonunchiligini bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish bo'yicha soliq to'lovchilar va davlat organlari faoliyatini o'z ichiga oladi.

Soliq ma'murchiligi davlat tomonidan soliq munosabatlarini boshqaruv tizimi sifatida qaralib, davlat tomonidan ushbu boshqarishni amalga oshirish uchun uning usullari va shakllari belgilab olinadi.

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, O'RQ-136-son Qonuni bilan tasdiqlangan, 2008-yil,59-modda.

Iqtisodiy barqarorlikka erishish, aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlashda, davlatning ijtimoiy dasturlarini amalga oshirishda yanada mukammallashgan soliq tizimlarini ishlab chiqish va buning natijasida budjetga tushumlarning uzluksizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirishimiz o'rinli: "Shunga erishmog'imiz kerakki, har bir soliq to'lovchi, u hoh jismoniy, hoh yuridik shaxs bo'lsin, soliq to'lashdan bo'yin tovlamasdan, daromadlarini yashirishga urinmasdan, aksincha, o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va daromadini oshirishga intilsin".²⁶

Samarali soliq ma'murchiligining zaruriy shartlaridan biri bo'lib, soliq nazorati hisoblanadi. Soliq nazoratining maqsad va vazifalari turlicha bo'lib, uning asosiy maksadi soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashni oldini olish, budjetga tushumlarning barqaror tushushini ta'minlashga qaratiladi.

Soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirishda soliq ma'murchiligining quyidagi asosiy shakllarini ko'rsatish mumkin:

- soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish va hisobini yuritish;
- hisobotlarni qabul qilish va qayta ishlash;
- hisoblangan summalarining va soliqlar tushumlarining xisobini yuritish;
- soliqlarning o'z vaqtida kelib tushishini nazorat qilish;
- belgilangan tartibda soliq tekshiruvlarini o'tkazish;
- tekshiruv materillarini amalga oshirish;
- tekshiruv materiallari yuzasidan hisoblangan moliyaviy va ma'muriy jarimalarning to'lanishini nazoratga olish.

O'tkazilgan tadqiqot va o'rganishlar soliq ma'murchiligini quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirishni taqozo etadi:

Ma'lumki, har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'zining faoliyatini boshlashdan oldin belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tishi shart. Amaldagi qonunchilikda ro'yxatdan utishning tartib va tamoyillari belgilangan bo'lib, ular

²⁶ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishdir//Xalq so'zi.2005-yil 29-yanvar.

doimo soddalashtirib borilmoqda.

Lekin tahlillar keyingi paytlarda davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyatini to'xtatib turgan tadbirkorlik sub'ektlari sonining o'sib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Tahlillar 2014- yilda ro'yxatdan o'tib faoliyat yuritmayotgan xo'jalik sub'ektlari 46 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda bunday xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soni 48,0 foizni tashkil etgan.

Mazkur xolat nafakat xo'jalik sub'ektlarida balki yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvi fuqarolar o'rtasida xam ko'payib bormoqda.

Jumladan, agar 2016-yilda ro'yxatdan o'tib faoliyat yuritmayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar 30 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda bunday xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soni 36 foizni tashkil etgan.

Fikrimizcha, mazkur xolat soliq to'lovchilar soliq konunchiligini ma'yori bilan to'lik tanishtirilmaganligi, ularning bilimi darajalari pastligi xamda ularda solik madaniyatining shakllantirilmaganligi, solik tulashning ijobiy moxiyati va solik tulashdan buyin tovlaganlik uchun kuruladigan xukukiy ta'sir choralarini ularga tulik etkazilmaganligidan bulishi mumkin

Dunyo tajribasining ko'rsatishicha, soliqlarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlashda mamlakatning rivojlanish darajasi, soliqqa tortish siyosati, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning usulari va boshqa omillar hisobga olinishi kerak. Oxirgi yillarda ayrim mamlakatlar soliqqa tortishni keskin oshirgan bo'lsa, boshqalarida deyarli o'zgarishlar kuzatilmagan. 1960 yillardan boshlab Frantsiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan bo'lsa, AQSh korporativ soliq solish tizimini saqlab qoldi. Bunday davlatlararo taqqoslash va ma'lumotlarni ilmiy tadqiq qilish yuqori darajadagi soliqlar ishlab chiqarishning o'sishiga salbiy ta'sir etishini ko'rsatmoqda²⁷. Afrika mamlakatlari ma'lumotlari asosida olib borilgan tadqiqotda eksport va sotishdan olinadigan soliqlarga nisbatan korporativ soliq, daromad solig'i va import

²⁷ Engen, Eric, and Jonathan Skinner. Taxation and economic growth. National Tax Journal, Vol. 49, No. 4 (Dec, 1996)

bojlarining ko'proq oshishi ishlab chiqarishning qisqarishiga olib kelgan⁸. Demak, respublikamizda mazkur o'zgarishlar natijasini prognoz qilish uchun, birinchidan, QQS stavkasi pasayishini yalpi ichki mahsulotning o'zgarishiga ta'sirini aniqlash, ikkinchidan QQS to'lovchilar sonining keskin oshishi hisobiga soliq solinadigan bazaning kengayishini hisoblab chiqish, shuningdek, QQS tushumini natijaviy omil sifatida belgilab, unga ta'sir etuvchi boshqa omillarning ta'sirini korrelyatsion-regression tahlil qilish orqali tushumlarda yuz beradigan o'zgarishlarni prognozlash mumkin. QQS stavkasining pasayishi hamda mazkur soliq to'lovchilar sonining oshishi soliq solinadigan bazaning kengayishiga xizmat qilishiga shubha yo'q.

Ushbu islohotni soliqqa tortish tizimini ixchamlashtirish hamda jismoniy shaxslarning daromad solig'ini soddalashtirish bo'yicha qo'yilgan katta qadam deb baholash mumkin. Shu bilan birga, quyidagi holatlarni e'tibordan qoldirmaslik zarur:

Birinchidan, "soliq" va "majburiy to'lov" tushunchalari bir-biridan farq qilib, bularga aynan bir xil majburiy to'lov deb qarash kerak emas. To'g'ri, kelib tushgan soliqni taqsimlash orqali (xuddi hozir yagona soliq to'lovi taqsimlangani kabi) bir qismini byudjetga, bir qismini Pensiya jamg'armasiga yo'naltirish mumkin. Shu bilan birga, ilg'or xorij tajribasida jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliq va sug'urta badalini yuridik shaxs (ish beruvchi) tomonidan to'lanadigan majburiy to'lov bilan birlashtirilib, yagona holda soliq to'lanishi joriy etilgan davlatlarni uchratish qiyin.

Ikkinchidan, yagona tekis stavkaning joriy etilishi nisbatan pastroq ish haqi oladigan jismoniy shaxslarda soliq yukining oshishini keltirib chiqarishi mumkin, shu sababli soliq solinmaydigan eng kam daromadlar miqdorini joriy etish talab etiladi. Faqat bu bilan muammoni echib bo'lmaydi, chunki nisbatan pastroq ish haqi oladigan jismoniy shaxslar tomonidan Pensiya jamg'armasiga pul mablag'larning o'tkazilmasligi ularning pensiya miqdorini aniqlash va moliyalashtirishda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchidan, yuridik shaxsning (ish beruvchi) yollanma ishchi oldidagi

ijtimoiy mas'uliyatini oshirish maqsadida yollanma ishchidan sug'urta badali bilan birga yuridik shaxsdan pensiya jamg'armasiga majburiy to'lov undiriladi. Rivojlangan davlatlarda yuridik shaxs va jismoniy shaxslarning pensiya jamg'armasiga yo'naltiradigan mablag'lari nisbati taxminan 50/50 foizni tashkil etadi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, fikrimizcha, jismoniy shaxslarga daromad solig'i bo'yicha bir tekis stavkani kamaytirish hamda soliq solinmaydigan eng kam daromad va sug'urta badalini joriy etish orqali yuridik shaxslarga yollanma ishchilar ish haqiga nisbatan pensiya jamg'armasiga to'lovlarni pasaytirilgan stavkalarda tatbiq etish maqsadga muvofiq.

Respublikamizda istiqbolda o'rta muddatli davlat byudjetining ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlab qolish, mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish, hududlarni subventsiyadan chiqarish yo'nalishlarida muntazam islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, turli darajadagi byudjetlar o'rtasidagi munosabatlar, mahalliy byudjetlarning barqaror daromad bazasini ta'minlash, xalqchil byudjetni yaratish borasida qat'iy belgilangan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, izchil ravishda ro'yobga chiqarilmoqda. Xususan, "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy islohotlar kontseptsiyasi"da mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlarini, shu jumladan, mahalliy byudjetga soliq ajratmalarini ko'paytirish hamda hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida mahalliy davlat hokimiyati organlarining soliq solish bazasini kengaytirishdan manfaatdorligini kuchaytirish orqali kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda²⁸. O'zbekistonda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rgangan holda, ijobiy natijalarini O'zbekistonda ijodiy qo'llash mamlakat iqtisodiyoti, xususan, soliqlar va soliqqa tortish tizimi, davlat byudjeti, uning daromad va xarajatlari mutanosibligini ta'minlashning muhim omili sanaladi.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-son Farmoni.

Bu holatni soliqqa tortish tartiblarini yanada takomillashib borayotganligi bilan izohlamoq kerak.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hukumati tamonidan davlat budjeti loyihasini tayyorlash jarayonida soliq yukuni bosqichma-bosqich kamaytirish nazarda tutilgan. Bu esa budjet-soliq siyosati sohasidagi qarorlarning samarali bo'lishini, daromadlar va xarajatlarni rejalashtirishda ilmiy asoslangan va tahlil etilgan iqtisodiyotning turli sohalari barqaror rivojlantirishga qaratilgan.²⁹

Soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'idagi faoliyati natijasida to'lagan soliqlarining yig'indisini ifodalaydi. Bunda soliq to'lovchilarning to'laydigan barcha soliqlar va soliqsiz majburiy to'lovlarining yig'indisi ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to'lovchilar zimmasiga qancha to'g'ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Muayyan turdagi yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha soliq yukining bir yilda budjetga to'langan barcha majburiy to'lovlar yig'indisi bilan aniqlash mumkin. Soliq yukining darajasi o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy qudratiga, inflyatsiya darajasiga, davlatning vakolatli funksiyalarni qo'llashiga, qolaversa, bozor munosabatlarning rivojlanishini va ijtimoiy harakat doirasiga bevosita bog'liq bo'ladi.³⁰

Soliqlarni yuridik va jismoniy shaxslardan undirish jarayonida beriladigan imtiyozlar natijasida soliq yukini soliq to'lovchilarning biridan ikkinchisiga yuklash jarayoni kuzatiladi. Soliq bo'yicha soliq to'lovchilarga soliq yukini tartiblash yoki mantiqan aytganda me'yorlashtirish muammosi yuzaga keladi.

Soliq yukini ifodalashning bir qancha ko'rinishlari mavjud: makrodarajadagi soliq yuki, mezodarajadagi soliq yuki va mikrodarajadagi soliq yuki. Soliq yuki makrodarajada ifodalanganda butun mamlakat miqyosida ifodalanib, asosiy ko'rsatkich sifatida muayyan vaqt oralig'ida davlat budjetiga kelib tushgan soliqlar yig'indisini ifodalaydi.

Ma'lumki, soliq tekshiruvlari soliq ma'murchiligining asosiy shakllaridan

²⁹Vahobov A.V., Qosimova G. A, Jamolov X.N. Budjet-soliq siyosati yaxlitligi. Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2005y.

³⁰ A. Vahobov, A. Jo'rayev. Soliqlar va soliqqa tortish. "SHarq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2009.

biri bo'lib, xo'jalik yurituvchi su'ektlarning moliya xo'jalik faoliyatini hujjatli tekshirish amaldagi qonunchilikka muvofiq davlat soliq xizmati organlariga yuklatilgan.

Keyingi yillarda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga noqonuniy asossiz aralashuvlarni oldini olish, ularning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish holatlarini bartarf etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenting Farmon va qarorlari bilan tadbirkorlik subektlar moliya-xo'jalik faoliyati tekshirishlar keskin kamaytirilmoqda. Jumladan, davlat soliq xizmati organlari tomonidan 2015-yilda solik to'lovchilar moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan 16 861 ta soliq tekshiruvlari o'tkazilib, ushbu tekshirishlarda 797,0 mlrd.so'm qo'shimcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisoblangan. Tekshiruv natijalari yuzasidan 2,1 mlrd.so'm miqdorida moliyaviy jarimalar qo'llanilib 62,2 mlrd.so'm miqdorida ustama hisoblangan.

Ta'kidlash joizki, davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarning moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan o'tkazilgan tekshiruvlarning 90 foizdan ortig'ida qo'shimcha soliqlar hisoblanib, moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan. Bu esa, keyingi paytlarda soliq to'lovchilarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar xisobini yuritish, xisobotlarini tuzib, taqdim etishda soliq idoralari bilan bo'ladigan muloqotlarni elektron tizimga o'tkazilishi natijasi deyishimiz mumkin.³¹

Bizningcha, Mamlakatimizda soliqlarni o'z vaqtida davlat budjetiga tushishini ta'minlash, soliq madaniyatini yuksaltirish, soliq huquqbuzarliklarni oldinini olish va kameral nazoratni takomillashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- Soliq to'lovchilar bilan davlat soliq xizmati organlari o'rtasida soliqqa oid munozarali masalalarni qisqartirish hamda soliq ma'murchiligi shaffofligini ta'minlash maqsadida ixtiyoriylik asosida yirik soliq to'lovchilarda "soliq monitoringi" tizimini joriy etish.

³¹ Boymurotov S.R.: "Soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari." Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda soliq siyosatining o'rni" nomli maqolalar to'plami. Toshkent. "Iqtisod-moliya"-2016-yil.

- Kameral nazorat soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligi normalariga amal qilishi va soliq majburiyatlari o'z vaqtida ijro etilishi yuzasidan ma'lumot olishga qaratilgan. Hozirga vaqtda soliq hamda davlat xizmati organlari o'rtasida yo'lga qo'yilgan hamkorlik mexanizmini takomillashtirish va modernizatsiya qilish lozim. Avvalambor, ma'lumot almashish tizimini takomillashtirish zarur, soliq munosabatlari ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilab turadigan axborot texnologiyalarni joriy qilish;

- Kommunikatsiya yo'nalishdagi mavjud imkoniyatlarni real vaqt rejimida takomillashtirish zarur. Bu kabi ma'lumot almashish tizimi, hamkorlikdagi tekshiruv tadbirlarini yanada sifatli tayorlash va o'tkazish imkoniyatini beradi;

- Soliqqa tortish sohasida ma'lumot almashish tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagi yo'nalishga urg'u berish lozim, ya'ni yirik korxonalar tomonidan soliq va buxgalteriya hisobini sertifikatlangan dasturiy mahsullarda elektron tarzda yuritish (masalan, BEM va 1S:Buxgalteriya), birlamchi hujjatlarni elektron nusxalarini kiritilgan holda. Bularni keyinchalik belgilangan tartibda qonunchilikda ya'ni Soliq kodeksi va "Buxgalteriya hisobi" to'g'risidagi qonunda aks ettirilish zarur.

- Soliq to'lovchilarda soliq madaniyatini shakllatirishni tizimli tashkil etish maqsadida, maktablar, kasb-xunar kollejlari va oliy yurtlari talabalari uchun soliq to'lash fuqarolarning huquqiy burchi ekanligini va malakatimizda joriy etilgan soliqlar, ularni hisoblash va to'lash tartiblari to'g'risida o'quv qo'llanmalari va darsliklarini ishlab chiqish va o'qitishni joriy etish va bunda, yoshlarning soliq sohasida olgan bilim va ko'nikmalarini muntazam nazorat kilib borish xamda ularni rag'batlantirish tizmlarini joriy etish;

- Soliq to'lovchilar bilan ishlashda soliq solish tartibi va soliq tizimi hodimlariga nisbatan jamoatchilik fikrini o'rganib borish tizimini joriy etish;

- Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, Davlat soliq qo'mitasi tarkibida alohida soliq to'lovchilarning telefon va internet orqali murojaatlarini qabul qilish va tezkor javoblar berish xizmatini joriy etish.

Soliq stavkalarining keyingi turi progressiv soliq stavkasi hisoblanadi. Progressiv soliq stavkasi mohiyati jihatidan proporsional soliq stavkasiga nisbatan teskari holatda amal qilib, unga muvofiq soliq to'lovchilarning daromadlari, foydasi yoki oboroti ortib, o'sib borishiga muvofiq tarzda soliq stavkasining ham ortib borishi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida buni jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i misolida ko'rish mumkin. Bunga muvofiq, jismoniy shaxslarning olgan daromadi oshib borishi bilan birga belgilangan shkala asosida soliq stavkasi ham oshib boradi. Masalan, jismoniy shaxsning umumiy olgan daromadi eng kam ish haqining bir baravaridan besh baravarigacha miqdoridan 7.5 foiz stavkada, eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha bo'lgan qismidan 17 foiz stavkada, eng kam ish haqining o'n baravaridan ortgan qismidan esa 23 foiz stavkada soliq undirilishi belgilangan (2017-yil uchun).

Progressiv soliq stavkasining ikki turi mavjud: oddiy progressiya va murakkab progressiya. Oddiy progressiyada soliqning orttirilgan stavkasi soliqqa tortiladigan barcha obyektga nisbatan qo'llaniladi, murakkab progressiyada esa soliqqa tortish obyekti qismlarga bo'linadi, ularning har biri o'z stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi, ya'ni orttirilgan stavkalar butun obyektga nisbatan emas, balki bundan oldingi bosqichdan ortgan qismiga nisbatan qo'llaniladi. Jismoniy shaxslarning daromadiga soliq stavkalari murakkab progressiya hisoblanadi.

Progressiv soliq stavkasining kamchiligi shundaki, bu soliq stavkalari soliq to'lovchilarning daromad olish manfaatdorligini rag'batlantirmaydi, shuning uchun progressiv soliq stavkalarini qo'llaganda muayyan chegaraga qadar soliq stavkasini oshib borishini ta'minlagan holda so'ngra regressiv soliq stavkalarini joriy etish soliq to'lovchilar manfaatlariga mos keladi. Shuning bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, progressiv soliq stavkalari davlat tomonidan iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solishda alohida ahamiyatga ega.

Soliq stavkalari haqida gapirganda, proporsional soliq stavkasi uchun neytral holat xarakterli bo'lsa, progressiv soliq stavkasi soliqlarning fiskallik xususiyatini xarakterlaydi, ya'ni progressiv soliq stavkalarida budjet manfaati ko'proq yuzaga

chiqadi. Shu jihatdan soliqlardan adolatlilik tamoyilining amal qilishini ta'minlash maqsadida regressiv soliq stavkalaridan foydalaniladi.

Regressiv soliq stavkasida soliq to'lovchining soliqqa tortiladigan daromadi, oboroti, mol-mulk qiymati kabi soliq obyektining ortib borishi bilan soliq stavkasining kamayib borishi ifodalanadi. Bundan ko'rinadiki, regressiv soliq stavkasi progressiv soliq stavkasiga nisbatan teskari hodisani ifodalaydi.

Respublikamiz soliq tizimida eksport faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan qator imtiyozlarning mavjudligi milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z mahsulotlarini eksport qilishga yo'naltiruvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar soliq tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular amaliyotida soliq stavkalarini tabaqalashtirilgan holda qo'llanilishini guvohi bo'lish mumkin. Chunki, soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini yuzaga chiqishi, asosan, uch xil ko'rinishda yuzaga chiqadi. Bular soliq imtiyozlarini amalga oshirish (soliq obyektini kamaytirish), soliq to'lovchilarni soliqdan ozod etish hamda soliq stavkalarini tabaqalashtirish hisoblanadi. Qator asosiy soliqlar yukini kamaytirish barobarida, oxirgi yillarda mamlakatimizda ayrim soliqlar stavkalarining oshirib borilayotganligini ham ta'kidlash joiz. Xususan, yo'llanib ishlovchi fuqarolarning pensiya jamgarmasiga sug'urta badali stavkasi oshirilishi davom ettirilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq tizimini yanada takomillashtirish, isloh qilishning zamonaviy yo'llarini izlash, soliqlarning davlat budjetiga o'z vaqtida tushishining mukammal yo'llarini qo'llash, xorijiy rivojlangan davlatlar soliq tizimidagi ijobiy tajribalarni amaliyotga tadbiiq qilish soliq siyosatining muhim masalalari bo'lib qolmoqda.

3.2. Soliqlar tushumi barqarorligini ta'minlashda xorij tajribasidan foydalanish amaliyoti

Chet mamlakatlar soliq tizimlari xususiyatlarini o'rganish, ularning ijobiy va salbiy tomonlariga e'tibor berish, kamchilik va afzalliklarni hisobga olgan tarzda, rivojlanib kelayotgan, hamda jahon mamlakatlarining iqtisodiy va siyosiy integratsiyasini teng huquqli a'zosiga aylangan mustaqil O'zbekiston

Respublikasi moliya-byudjet tizimi, soliqqa tortish tizimini mukammallashtirish orqali mamlakatimizni yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi, degan umiddamiz. Jahon mamlakatlari iqlimi, ularning geografik joylashuvi, tabiiy resurslar turlarining mavjudligi, xalqlarining urf-odatlar va shu kabilar muayyan bir davlatning soliq tizimiga, amal qiladigan soliq turlariga, ularning undirilishidagi xususiyatlariga bevosita ta'sir etadi. Ushbu fikrni davom ettirgan holda quyida korxonalar daromadini soliqqa tortishning rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini tahlilini keltiramiz.

7-jadval

Xorijiy davlatlarda korxonalardan olinadigan foyda solig'ining stavkalari miqdorlari³²

t/r	Davlatlar	Foyda solig'i miqdori, foizda
1.	Yaponiya	37
2.	Italiya	36
3.	Ispaniya	35
4.	Niderlandiya	34,5
5.	Avstriya	34
6.	Frantsiya	33,3
7.	Buyuk britaniya	30
8.	Qozog'iston Respublikasi	30
9.	Germaniya Federativ Respublikasi	25
10.	Rossiya Federatsiyasi	24
11.	O'zbekiston Respublikasi	14

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, foyda solig'i stavkasi dunyoda iqtisodiy salohiyati bo'yicha faqat AQShdan keyingi o'rinda turgan Yaponiya mamlakatida 37 foizni yoki korxonalar moliyaviy natijasining 1/3 qismidan

³² IBFD. Publications. European Tax Handbook-2002. r. 59.

ko'pini tashkil etmoqda. Bu O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan soliq stavkasiga qaraganda esa 3 barobardan ham ko'pni tashkil etmoqda.

Umuman olganda nomlari keltirilgan davlatlar ichida O'zbekistondan bir pog'ona oldin Rossiya Federatsiyasi bo'lib, undagi stavka ham bizdagiga qaraganda ikki barobar ko'p bo'lmoqda. AQSh soliq tizmidagi foyda solig'ini tahlil etar ekanmiz, federal byudjeti daromadlarining umumiy hajmida salmog'iga ko'ra uchinchi o'rinni korporatsiyalarning daromadlaridan olinadigan soliq egallaydi.

8-jadval

AQShda korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliqning soliq solish bazasi va stavkalari miqdori³³

Soliqqa tortiladigan daromad, dollar	Soliq stavkasi, foizda
50 000gacha	15
50 000 - 75 000	25
75 000 – 100 000	34
100 000 – 335 000	39
335 000 – 10 000 000	34
10 000 000 – 15 000 000	35
15 000 000 – 18 333 333	38
18 333 333 dan yuqori	35

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq kichik biznes korxonalarini moliyaviy rag'batlantirish vazifasini o'taydi. Chunki, daromad hajmining o'sib borishi bilan soliq stavkalari ham oshib boradi. AQShda korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliqni qo'llashga xos bo'lgan xususiyatlardan biri shundaki, bu yerda dividendlar soliqqa

³³ Aleksandrov I. Nalogovie sistemi Rossii i zarubejnix stran. -M.: "Beratov-Press". 2002. Str. 120,121

tortish bazasidan chegirib tashlanmaydi. Ammo, dividendlarga nisbatan sezilarli darajada soliq imtiyozlari qo'llaniladi. Masalan, korporatsiyalarning daromadlaridan olinadigan soliq imtiyozlari ularning aksionerlik kapitalidagi salmog'idan kelib chiqqan holda, belgilangan. Xususan korporatsiyaning boshqa korporatsiya aksionerlik kapitalidagi salmog'i 80 foiz va undan ortiq bo'lsa, u holda korporatsiya oladigan dividend 100 foiz soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi. Agar bu ko'rsatkich 20 foiz va undan ortiq bo'lsa dividendlarning 80 foizi, qolgan barcha boshqa holatlarda dividendlarning 70 foizi soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi³⁴.

Germaniyada korporatsiyalar foydasiga soliq solishda soliqqa tortilmaydigan minimumlar bor. Soliq stavkasi 25 foizni tashkil etadi. Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishda foyda ikkiga bo'linadi; taqsimlanadigan va taqsimlanmaydigan³⁵.

Frantsiyada esa korxonalar foydasidan olinadigan soliq - bu korxonani barcha operatsiyalar yig'indisi bo'yicha olingan sof foydasidan undiriladi. Hozirgi kunda soliqning asosiy stavkasi 33.3 foiz bo'lib, ushbu soliq stavkasiga pasaytiruvchi koeffitsientlar qo'llaniladi. Eng yuqori soliq stavkasi 42 foizdir.

Yaponiyada korporatsiyalar foydasiga soliqning stavkasi 37 foizni tashkil etadi. Ushbu soliqqa nisbatan ham pasaytiriluvchi koeffitsientlar qo'llaniladi. Eng yuqori soliq stavkasi 48,8 foizni tashkil etadi³⁶.

Demak, rivojlangan industrial mamlakatlarda korporatsiyalarning daromadlaridan olinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda.

Qo'shilgan qiymat solig'ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiy tajribalarini o'zlashtirish masalalari. Hozirgi vaqtda qo'shilgan qiymat solig'i Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning davlat byudjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

Evropa Ittifoqi (EI)ning maxsus Direktivasiga muvofiq 1992 yilning 19 oktyabridan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ining minimal stavkalari belgilab

³⁴ Aleksandrov I. Nalogovie sistemi Rossii i zarubejnix stran. -M.: "Beratov-Press". 2002. Str. 123.

³⁵ James E. Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. r. 121.

³⁶ Bard V., Pavlova L. Nalogi v usloviyax ekonomicheskoy integratsii. // -M.: "Knorus". 2004. Str. 102.

berildi. Xususan, 1993 yilga qadar minimal stavkalarda qo'shilgan qiymat solig'ini olish bitta mamlakatda amalga oshiriladigan bo'ldi. Ya'ni, nollik stavka eksportyor mamlakatida qo'llaniladi, minimal stavkalar bo'yicha tovarlar va xizmatlar importyorlarning mamlakatida soliqqa tortiladi ³⁷. Fransiyada standart soliq stavkalari mavjud bo'lib, 1998 yildan boshlab, ularning miqdori 20,6 foizni tashkil qiladi. Bundan tashqari qo'shilgan qiymat solig'ining pasaytirilgan va oshirilgan stavkalari ham mavjuddir. Qo'shilgan qiymat solig'ining pasaytirilgan stavkalari 5,5 foiz va 2,1 foizni tashkil etsa, oshirilgan stavka 25 foizni tashkil etadi³⁸.

Buyuk Britaniyada qo'shilgan qiymat solig'ining uchta stavkasi amal qiladi: 0, 8,0 va 17, 5 foiz. Rossiya Federasiyasida qo'shilgan qiymat solig'i 20 foiz, 10 foiz va 0 foizli qilib belgilangan.

Xorijiy mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini daromad manbai sifatida qo'llash tajribasini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, birinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy kon'yunkturaning tebranishlariga bevosita bog'liq bo'lmagan barqaror daromad manbai hisoblanadi; ikkinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i aholini nisbatan kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish imkonini beradi; uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; to'rtinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i faoliyatini yaqinda boshlagan va katta miqdordagi tovaroborotiga ega bo'lmagan tadbirkorlarni rag'batlantirishni moliyaviy vositasi hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblash uslubiyatini takomillashtirishda ilg'or xorij tajribalaridan foydalanish yo'llari. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini xorij tajribasi asosida maqbullashtirish yo'nalishlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq borasida fikr yuritilganda, masalaning mohiyati albatta soliq stavkasiga borib taqaladi. Mamlakatimiz soliq amaliyotida bugungi kunda uning 4 pog'onali, ya'ni 0, 7.5, 17, 23 foizli stavkalari amal qilmoqda. Bizga ma'lumki, barcha rivojlangan mamlakatlarning aksariyat qismida aholidan daromad solig'i ko'payib boruvshi

³⁷ Bard V., Pavlova L. Nalogi v usloviyax ekonomicheskoy integratsii. -M.: "Knorus". 2004. str 204

³⁸ Serdyukov A. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik dlya vuzov. -SPb.: "PITER". 2005. str. 51

(progressiv) usulda davlat budjetiga tortiladi (bizda ham shu usulda), ammo AQShda bunday usul mustasnodir. U yerda aholidan olinadigan daromad solig'i regressiv usulda amalga oshiriladi. Bu holatni quyidagi jadval orqali yorqin namoyon etish mumkin.

9-jadval

AQShda soliq to'lovshi jismoniy shaxsning oilaviy maqomiga qarab soliq stavkasining o'zgarishi³⁹

Yillik daromad bazasi \$	Soliq summasi%
1. Birgalikda soliq deklaratsiyasini to'ldirayotgan er-xotinlardan	
-0 dan 29750 gacha	15.0
-29751 dan to 71900 gacha	28.0
-71901 dan to 171090 gacha	33.0
-171090 va yuqorisiga	28.0
2. Oila boshlig'idan	
-0 dan 23900 gacha	15.0
-23900 dan 61650 gacha	28.0
-61650 dan 123790 gacha	33.0
-123790 dan yuqorisiga	28.0
3. Yolg'iz soliq to'lovchidan	
-0 dan 17850 gacha	15.0
-17850 dan 43150 gacha	28.0
-43150 dan 89560 gacha	33.0
-89561 dan yuqorisiga	28.0

Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish amaliyotida soliq stavkasi miqdorini progressiv (ko'payib boruvshi) usuli bilan birgalikda, aholining ayrim qatlamlari uchun regressiv (kamayib boruvshi) usulidan ham foydalanish lozim. Soliqqa tortishni bu uslubining ahamiyatli tomoni shundan iboratki, daromad o'sib

³⁹ Belyaev Yu.A. Byudjetniy federalizm: zarubejniy opit. –M.: Finansi, 2007 g.

borgan sari soliq stavkasi miqdori muvofiq ravishda kamayib boradi. Bu esa hozirgi kundagi davlatning ijtimoiy siyosatiga mos keladi. Jadvaldan ma'lum bo'layaptiki, AQShda federal shaxsiy daromad solig'ining maksimal stavkasi 33% ni tashkil qilsada, lekin eng oxirgi stavkasi 28%ni tashkil qilmoqda. Eng murakkab masala – soliqning eng kam va eng yuqori stavkalar to'g'risidagi masaladir. Bizning nazarimizda, avvalo eng yuqori va eng kam stavkalar nisbati nimalarga bog'liqligini aniqlab olish nazariy jihatdan muhimdir. Bu yerda asosiy omil – jamiyatning tabaqalarga bo'linishi, eng badavlat 10% aholi bilan eng kambag'al 10% aholi daromadlari o'rtasidagi tafovutdir. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bu koeffitsient ancha katta hisoblanadi. Shu sababli daromad solig'ining eng yuqori va eng kam stavkalari o'rtasida katta tafovut o'zini oqlaydi. Umuman olganda, turmush darajasini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotlarda aholi daromadlarini inflyatsiyaga to'g'rilab, nominal emas, real daromadlarni aniqlash joiz, ya'ni bunda daromad soliqlari va boshqa turdagi majburiy to'lovlar chiqarib tashlanishi kerak»⁴⁰. O'zbekistonda hozirgi vaqtda boshqa shart-sharoitlar mavjud bo'lib, daromadlar ko'proq jamg'arish omillari hisobidan emas, balki narx omillari hisobidan o'smoqda. Bu yerda rag'batlantiruvchi omillar boshqacha harakat qiladi. Shu sababli o'tish davri mobaynida o'ta yuqori daromadlar uchun eng yuqori stavkalar belgilanishi to'g'ridir.

3-bob bo'yicha xulosa

Mazkur bobda soliqlar va soliqqa tortish jarayonlarini takomillashtirish borasida jahon mamlakatlarining ilg'or tajribalari hamda ularning ayrim jihatlarini mamlakatimiz soliq tizimida qo'llash masalalari yoritib berilgan. Bunda bir necha rivojlangan mamlakatlarning soliq sohasidagi natijalari keltirib o'tilgan. Shuningdek, 3 bobida soliq tizimini yanada takomillashtirish hamda soliqqa tortish jarayonini boshqarish mexanizmini yanada oshirish borasida fikr va mulohazalar berib o'tilgan.

⁴⁰ M.Yunusov. O'zbekistonda soliq siyosatining dolzarb muammolari //Bozor, pul va kredit. – 2004. - №2.-13-bet

XULOSA

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish hamda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sharoitida soliqlar va soliqqa tortish jarayonlarini to'g'ri va aniq tashkil etish hamda uni boshqarish mamlakatimizning strategik muhim vazifalaridan biri desak yanglishmaymiz. Chunki har bir davlat o'zining budjet daromadlariga ega bo'lmog'i lozim. Shundagina xarajatlarni amalga oshira oladi. Mamlakatimizda davlat budjeti daromadlarining qariyb 90% dan ortig'i aynan soliqlardan to'planadi. Basharti shunday ekan, yurtimizda soliqqa va soliqqa tortish jarayonlariga bo'lgan e'tibor katta bo'lishi tabiiy bir xoldir.

Biz yuqorida mamlakatimizda mustaqillik yillarida ishlab chiqilgan soliq siyosati, o'zini oqlab kelayotgan soliq tizimi, amalda bo'lgan soliqlar va ularning tarkibi, soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil to'xtalib o'tdik. Yosh davlat bo'lganligimiz sabab bizga bu borada tajriba juda ham muhim. Biz har bir sohada, tarmoqda bo'lgani kabi soliqqa tortish jarayonini boshqarishda ham tez-tez islohotlar o'tkazib turishimiz, soliqqa tortish jarayonini boshqarishning yangidan-yangi ustuvor yo'nalishlarini aniqlab va belgilab olishimiz lozim.

Mazkur ishida aynan mana shu jihatlarga alohida e'tibor berishga, mavzuning naqadar dolzarbligini his qilgan holda uni yoritib berishga harakat qildim. Bunda menga ustozlarimdan olgan bilimlarim asqotdi.

Mavzuni chuqur o'rganib chiqqan holda soliqlar va soliqqa tortish jarayonini boshqarishni yanada takomillashtirish, mamlakatimizni kelgusida bundanda yuksak yutuqlarga erishishiga amaliy ko'mak berish maqsadida men ham bir nechta taklif va mulohazalarimni berib o'tmoqchiman:

Mazkur islohotdan korxonalar ixtiyorida qoladigan foydani ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirishni rag'batlantirish va bu orqali makroiqtisodiy samaraga erishish ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin. Buni, albatta, uzoqni o'ylab ko'rilyotgan chora-tadbir sifatida baholash mumkin. Shu bilan birga, investor nuqtai nazaridan qaraganda, dividend sifatida undiriladigan soliqning stavkasi (25 %) masalasini pasaytirish jihatdan o'ylab ko'rish kerak,

chunki dividend solig'i stavkasi asosiy hamkor davlatlarimiz Rossiyada rezident va norezidentligiga qarab 13 foizdan 15 foizgacha, Qozog'istonda 15 foiz atrofida, shuningdek, respublikamiz soliq islohotlarida foyda solig'ini bekor qilish (Estoniyada foyda solig'ining nol stavkasi deb ataladi) va dividend solig'iga o'tkazish asos qilib olingan Estoniya tajribasida ham dividend solig'i stavkasi 20 foizni tashkil etadi, mamlakatimiz soliq islohotlarida ekspert sifatida konsalting firmasi qatnashayotgan Gruziyada taqsimlangan foydadan soliq stavkasi 15 foizga teng.

QQSni tovar aylanmasi 1 mlrd. so'mdan ortiq bo'lgan soliq to'lovchilarning barcha toifalari, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar orasida keng tadbqiq etish bilan birga QQS stavkasini 20 foizdan 12 foizgacha kamaytirish, shuningdek, respublikamizda ishlab chiqariladigan qishloq xo'jalik va ayrim oziq-ovqat mahsulotlarining narxlari o'sishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida sotish aylanmalarini QQSdan ozod etish bilan birga to'laqonli soliq solish tizimini yaratish va soliqqa tortish bazasini aniqlashtirish.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini rivojlantirish soliqlarini ixchamlashtirish lozim.

To'g'ri soliqlarning ahamiyatini oshirish va katta e'tiborni resurslardan keladigan soliqlarni ahamiyatini oshirishga qaratish zarur.

Soliqdan imtiyozlar va preferensiyalar berish orqali yuridik shaxslar faoliyatlarini yanada erkinlashtirish va ularning faoliyatlari samarasi oshishiga imkoniyat yaratish.

Soliqlarni o'z vaqtida va to'g'ri hisoblanishi va budjetga o'tkazilishi ustidan uzviy nazoratni amalga oshirish (bu borada internet va lokal tarmoqdan foydalangan holda uzviylikni ta'minlash).

Yuridik shaxslar tasarrufida bo'lgan uzoq muddatli mol-mulklar amortizatsiyasi bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etish uchun mol-mulklarni eskirish muddatlarini belgilangan muddat tugagandan keyin qo'shimcha ravishda uzaytirish yo'llarini ko'rib chiqish.

Soliq solinadigan bazaning aniqlanishi bo'yicha va borada soliqlardan qochish imkoniyatlarini kamaytirish bo'yicha bir qator tadbirlarni ishlab chiqish.

O'ylaymanki, yuqoridagi takliflar soliq mexanizmida mavjud muammolarni hal qilish uchun turtki bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni ko'p yillik rivojlanishida soliqlar va soliqqa tortish jarayonlarini samarali boshqarishning ahamiyati juda katta hisoblanadi. Chunki soliqlar va soliqqa tortish jarayonlarini samarali boshqarmay turib soliq siyosatini amalga oshirib, mamlakatning soliq tizimini yaratib bo'lmaydi. Soliqlarsiz esa mamlakatning iqtisodiyotini umuman tasavvur qilishning iloji yo'q. Qo'shimcha ravishda shuni ham ta'kidlab o'tishimiz joizki, mamlakatimizda olib borilayotgan budjet-soliq siyosati samarasi o'laroq xususiy sektorga keng imkoniyatlar eshiklari ochilgan. Xususan, soliq yukining yildan-yilga kamaytirilayotganligi soliq to'lovchilarga bu borada yanada ko'proq mablag'ni o'z faoliyatida qayta foydalanish imkoniyatini yaratayotgan bo'lsa, ularga berilayotgan imtiyozlar va preferensiyalar evaziga esa faoliyatni yanada samarali tashkil qilish hamda yangi innovatsion g'oyalarni amaliyotga tadbiiq etish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu esa mamlakatimizning kelajakda yanada rivojlanishi uchun samarali hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017y. - 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi". T.: "O'zbekiston" 2013 yil 26 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat". O'zbekiston Respublikasining 25.12.2007 y. O'RQ-136-son Qonuni bilan tasdiqlangan 01.01.2008 y.dan e'tiboran amalga kiritilgan. Mazkur Kodeksga o'zgartirishlar kiritilgan. O'zR 29.12.2015 y. O'RQ-398-son Qonuni.
4. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№3454-sonli Qarori 2017 yil 29 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№2699-sonli Qarori 2016 yil 27 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№2455-sonli Qarori 2015 yil 22 dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№2270-sonli Qarori 2014 yil 4 dekabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№2099-sonli Qarori 2013 yil 25 dekabr.

- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№1887-sonli Qarori 2012 yil 25 dekabr.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№1675-sonli qarori 2011 yil 30 dekabr.
- 12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№1449-sonli qarori 2010 yil 24 dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

- 13.Karimov I.A. «O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». T. «O'zbekiston» 1995 yil 208-bet.
- 14.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2009. -B. 56
- 15.Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2005.-B. 528.
- 16.Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir". 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 16.01.2016 y. www.uza.uz
- 17.Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l

- ochib berish – ustuvor vazifamizdir. 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi 17.01.2015 yil
18. Karimov I.A. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. 18.01.2014. www.uza.uz.
 19. Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. Xalq so'zi. 2014 yil 5 dekabr.
 20. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. "Xalq so'zi" gazetasi, 13-fevral 2007-yil. 2-5 betlar
 21. Karimov I. A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari". T.: O'zbekiston, 1998. 358-b.
 22. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
 23. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.
 24. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
 25. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b.
 26. Mirziyoev Sh.M. mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy

dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi: Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. www.uza.uz.

3. Darslik va o'quv adabiyotlari

27. Malikov T.S. Moliya: O'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: "Iqtisod-moliya", nashriyoti, 2018 y. – 268b
28. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Moliyaviy tizim: Zamonaviy talqin: o'quv uslubiy qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2016, - 116 b.
29. Vahobov A.V, Malikov T.S., "Moliya" o'quv qo'llanma, "Noshir", T.: - 2012.
30. Malikov T.S., Jalilov P.T., Byudjet-soliq siyosati: monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi, Toshkent moliya instituti.-T.Akademnashr, 2011. – 472 b.
31. Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi Byudjet tizimi. «infoCOM.UZ» .Toshkent- 2010.480b.
32. Malikov T.S., Haydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi. /O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2009.
33. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: Iqtisod-moliya, 2008.
34. Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat byudjeti. /O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2007.
35. Malikov T.S., Vahobov D.R., Moliya:chizmalarda (o'quv qo'llanma) Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2010.
36. Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet daromadlari va xarajatlari. /O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2007.
37. Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). /O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2008.

- 38.Vahobov A.V., Qosimova G. A, Jamolov X.N. Budget-soliq siyosati yaxlitligi. Toshkent “IQTISOD-MOLIYA” 2005,3-bet
- 39.T.S. Malikov, P.T.Jalilov. Budget-soliq siyosati, - T.:”akademnashr” nashriyoti, 2011-yil.
- 40.Vahobov.A, Jo’rayev.A “Soliqlar va soliqqa tortish” Toshkent 2009.
41. Yahyoev Q. «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». T. «G’afur G’ulom» 2000. y. 25 bet
- 42.Panskov V.P., Knyazev V.G. Nalogi i nalogooblojeniya. –M.: MTSFER, 2003. –s. 57-59.
- 43.Aleksandrov I. Nalogovie sistemi Rossii i zarubejnix stran. -M.: “Beratov-Press”. 2002. Str. 120,121
- 44.James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. r. 121
- 45.Bard V., Pavlova L. Nalogi v usloviyax ekonomicheskoy integratsii. // . –M.: “Knorus”. 2004.
- 46.Serdyukov A. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik dlya vuzov. -SPb.: “PITER”. 2005. str. 51
- 47.Belyaev Yu.A. Byudjetniy federalizm: zarubejniy opit. –M.: Finansi, 2007 g.

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)

- 48.M.Yunusov. O’zbekistonda soliq siyosatining dolzarb muammolari //Bozor, pul va kredit. – 2004. - №2.-13-bet
- 49.Malikov T.S. Soliq yukining og’irligini keskin kamaytirish kerakmi? Risola. -T.: 2006. —B. 32.
- 50.Mamanazarov A.B. Soliq siyosati. -T.: «Moliya», 2003. -B. 148.
- 51.To’raev Sh.Sh. Soliqqa tortishni tahlil etishning dolzarb masalalari. -T.: “Akademiya”, 2005. - B. 130
- 52.Statsbornik SNG. – M.2012
- 53.IBFD. Publications. European Tax Handbook-2002. r. 59.

5. Internet saytlari

<http://www.press-service.uz> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti axborot markazi sayti

<http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti

<http://www.soliq.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti

<http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti

<http://www.nalog.ru> - Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti

<http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti

<http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.